

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
HOZIRGI ZAMON O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

BADIIY ASARDA TO‘Y MAROSIMLARI IFODASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Xolmaxmedova N.

Ilmiy rahbar: f.f.n.Davronova M.

Samarqand – 2013

REJA:

KIRISH

I BOB. Xalq og'zaki ijodi hamda mumtoz adabiyotda to'y marosimi talqini:

1.1. Xalq og'zaki ijodi namunalaridagi to'y marosimlari tahlili;

1.2. Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida to'y tasviri.

II BOB. XX asr adabiyotida to'y marosimi tasviri va uning ahamiyati:

2.1. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida to'y marosimi;

2.2. Tog'ay Murod ijodida to'y marosimi tasviri.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. XX asr oxirlarida o'zbek xalqi hayotida olamshumul voqea sodir bo'ldi – o'zbek xalqi o'z mustaqilligiga erishdi. Mana endi ijodkorlar o'z xohish va irodasiga ko'ra o'zlari lozim deb topgan mavzularda asarlar yarata boshlashdi. Shu bilan bir qatorda ijodkorlar xalqning sevgan qahramonlarini xalqqa qaytarish bo'yicha samarali mehnat qila boshladilar. Ya'ni el sevgan qahramonlar Amir Temur, Ulug'bek, Bobur, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Nosuriddin Rabg'uziy, Boborahim Mashrab singari siymolar hayoti va faoliyatini o'rganish mumkin bo'lib qoldi. Shu qatorda qatag'onga uchragan adiblardan Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Botu, Behbudiy, Abdulla Avloniy singari yozuvchilarimizning asarlari ham xalqqa qaytarila boshlandi. Ularning pok nomlari esa oqlanib, xalq orasida ulug'lanmoqda. Bu haqda Prezidentimiz I. A. Karimov ham o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida atroflicha so'z yuritadi. Shu bilan bir qatorda xalqimizning qadimgi udumlari adabiyotda ham o'z o'rnini egallay boshladi. Ularga mana endi eskilik sarqiti deb emas, balki xalq udumlarining bir ko'rinishi sifatida qaray boshladilar. Bu azaliy urf-odatlar xalq og'zaki ijodidan boshlab to bugungacha bo'lgan asarlarda ham ifoda etib kelinmoqda. Biroq bu marosimlar adabiyotshunoslikda to'liq tahlil etilmagan.

Agar e'tibor qaratilsa, xalq og'zaki ijodidagi maqollarda ham, ertaklarda ham, dostonlarda ham to'y marosimlari aks ettirilgan. Bu ko'rinishlar XX asr adabiyotiga ham o'tib, Abdulla Qodiriy, Tog'ay Murod, Tohir Malik va boshqa adiblar ijodida ma'lum bir ko'rinishda tasvirlangan. Xalq og'zaki ijodining ilk namunalaridan tortib to bugungi kungacha yaratilgan asarlardagi to'y marosimlari ifodasi biror yirik tadqiqot obyekti bo'lgan emas. Bu esa bitiruv malakaviy ishimizning **dolzarbligini** belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi. "...Xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug' bir dargoh deb biladi. Ana shu bahoning o'zi el-yurtimiz hayotida shu soha namoyandalariga, ularning so'zi, chuqur ma'noli asarlariga ishonch, hurmat va ehtirom azaldan yuksak darajaga ko'tarilganini ko'rsatib turibdi"¹. Darhaqiqat, o'zbek xalqi azal-azaldan badiiy adabiyotdan o'ziga ma'naviy ozuqa olgan, ma'naviy hordiq chiqargan. XX asr xalqimiz tarixida o'zlikni anglash, milliy uyg'onish davri bilan boshlandi. Jadidchilik harakati nomi bilan tarixga kirgan bu jarayon xalqimiz ma'naviy hayotining hamma jabhalarini qamrab oldi, badiiy adabiyotda ham tom ma'noda yangilanish jarayoni kechdi. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romaniga yozgan kichik muqaddimasida o'sha davr ijodkorlarining adabiyotga qo'ygan talablarini to'la ifodalagan edi: "Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo'ydik, bas, biz har bir yo'sinda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o'xshash dostonchilik, ro'monchilik va hikoyachiliklarda ham yangarishg'a, xalqimizni shu zamonning "Tohir-Zuhro"lari, "Chor darvesh"lari, "Farhod va Shirin" va "Bahromi go'r"lari bilan tanishtirishga o'zimizda majburiyat his etamiz"². Qodiriy mana shu majburiyat oldida qo'rqmay roman yozishga ilk bor qo'l urdi va xalqning urf-odatlarini unga singdirib yubordi. Y. I. Bertels ta'biri bilan aytganda, Abdulla Qodiriy fransuz, rus, ingliz, nemis va hind romanchiligidan keyin oltinchi o'ziga xos milliy romanchilik maktabiga asos soldi.

Zero, badiiy adabiyot insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan qudratli vosita ekanligini ta'kidlar ekan yurtboshimiz, yurtimizni dunyoga tarannum etadigan, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lab, avlodlar xotirasida boqiy saqlash uchun, avvalambor, buyuk shoirlar, ijodkorlarning, mutafakkirlarimizning merosini o'rganishni burch deb

¹ Каримов И. А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. 7 - бет.

² Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2007. 3 - бет.

baholaydilar. Biz shundan kelib chiqqan holda, bitiruv malakaviy ishimizda o'zbek xalqining o'ziga xos to'y marosimini badiiy asarlarda ifoda etilishini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Bizning badiiy asarlarda to'y marosimi ifodasi tahliliga qaratilgan ishimizning ahamiyati kelajakda ushbu mavzu bilan bog'liq yangiliklar hamda unda ma'lum bo'lmagan adabiy an'analar va ijodiy ta'sirni ilm ahliga ko'rsatish, to'y marosimlarini har xil ko'rinishlarda ifoda etilganligini tahlil qilish va bu ishimiz umumta'lim va o'rta maxsus o'quv dargohlarida, kollej hamda Oliy o'quv yurtlarida dasturulamal bo'lib xizmat qilishiga ishonamiz. Biz bitiruv malakaviy ishimizning oldiga qo'ygan maqsadlarimizdan kelib chiqqan holda quyidagi **vazifalarni** bajarishni ko'zda tutdik:

- Badiiy asarlardagi to'y marosimlarini topish va ularni o'rganish;
- Bu mavzu bo'yicha adabiyotshunoslar fikrini o'rganib chiqish;
- Xalq og'zaki ijodida to'y marosimlari tasviri bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini izlab topish;
- Mumtoz adabiyotda to'y marosimlarini aniqlash va ularni tahlil qilish;
- Asarlarning qiyosiy tomonlarini ishlab chiqish;
- Tasvirlarning o'ziga xos jihatlarini aniqlash;
- Asarlardagi to'y marosimlarini shakl va mazmun, sujet va kompozitsiyasini qiyosiy o'rganish;
- Asarlar to'y marosimlari ifoda etilishi usullarini kuzatish va buni maqsadga muvofiqligini aniqlash;
- To'y marosimlarini badiiy asarlardagi o'рни va uning bugungi kundagi ahamiyati to'g'risida fikr bildirish.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Bugungi kungacha qisman I.Sultonov, U.Normatov, A.Aliev, S.Mirvaliev, B.Karim, A.Ulug'ov, M.Mahmudov, X.Lutfiddinova, H.Umurov kabi olimlar tomonidan

o'rganilgan. Ammo to'y marosimini A.Qodiriy asariga nisbatan tahlil qilingan va bunga e'tibor qaratilgan. Biroq xalq og'zaki ijodidan tortib bugungi kungacha asarlarni tahlil qilish asosiy maqsad qilib belgilanmagan. Ushbu bitiruv malakaviy ishimiz esa yuqorida ta'kidlangan jihatlar bilan tahlil qilishga qaratilgan.

Mavzuning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi doirasidagi ilmiy ishlar – badiiy asarlardagi to'y marosimlari ifodasi tahlili adabiyotshunoslikda bir muncha amalga oshirilgan. To'y marosimlari tahlili, ularning o'xshash va farqli jihatlarini o'rganib, adabiy ta'sirlarning rolini o'rganish ishimizning yangiligini tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiq usullari. Bitiruv malakaviy ishimizga Mustaqillik g'oyasi va milliy istiqlol mafkurasi asos qilib olindi hamda qo'yilgan barcha muammolarni tadqiq etishda yangi davrning ilmiy- estetik mezonlariga tayanildi. Bitiruv malakaviy ishimizda xalq og'zaki ijodidagi asarlar, mumtoz adabiyotdagi asarlar hamda bugungi badiiy asarlar tadqiqot manbai sifatida olinadi. Bitiruv malakaviy ishimizda I.Sulton, M.Qo'shjonov, N.Karimov, S.Mirvaliyev, U.Normatov, A.Rasulov, D.Quronov, T.Boboyev, B.Karimov, H.Umurov kabi adabiyotshunoslarning fikr mulohazalariga tayandik va ularning adabiyotshunoslikka doir qarashlari ishimizga ilmiy- nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida analitik va qiyosiy – tipologik tadqiq usulidan foydalanildi.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikki bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati kabi qismlaridan tashkil topgan.

Har ikki bobdan olingan umumiy xulosalar ishimizning xulosa qismida o'z ifodasini topadi. Bitiruv malakaviy ishini yozish davomida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati to'liq keltiriladi.

BIRINCHI BOB.

XALQ OG'ZAKI IJODI HAMDA MUMTOZ ADABIYOTDA TO'Y MAROSIMI TALQINI

1.1.Xalq og'zaki ijodi namunalaridagi to'y marosimlari tahlili.

Adabiyot – xalq ma'naviyati, ruhiyati ko'zgusi. Adabiyot – xalq tarixining badiiy ifodasi. Adabiyot xalq ruhiyatidan kelib chiqadi va uning o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanadi. Ha, xalqning orzu – umidlarini, dard – hasratini, o'y – fikrlarini, tashvishi-yu quvonchlarini ifodalamaydigan adabiy asarni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Adabiyot xalq hayotini aks ettirar ekan, u, albatta, ijtimoiy turmushdagi milliy, umuminsoniy jihatlarni badiiy ifodalashi tabiiy bir holdir. Milliylik va umuminsoniylik adabiyotning ruhida chuqur iz qoldiradi.

Nemis mumtoz shoiri I. R. Bexer aytganidek, “adabiyotning milliy mazmuni deganda, shubhasiz, adabiyotning millat oldida turgan tarixiy vazifalar bilan, xalqning milliy manfaatlari bilan bog'liqligi... tushuniladi”.

Umuman aytganda, adabiyot xalqning hayoti, kasb – kori, ijtimoiy ongini aks ettirish yo'li bilan uning milliy xarakterini ifodalaydi. Adabiyotning milliy xususiyatlari: millatlar hamda xalqlarning o'ziga xos alomatlari; ijtimoiy – siyosiy, tabiiy – geografik, ruhiy xususiyatlari; qahramonlarning tili, tashqi ko'rinishi, kiyim – kechagi, urf – odati; xalqning ijtimoiy va siyosiy hayoti, uning ijtimoiy – iqtisodiy tajribasi, milliy manfaatlarini nechog'li aks ettirganligi bilan aniqlanadi.

Millat yoki xalqning milliy xususiyatlari abstrakt holdagina emas, balki konkret tarixiy davrning, ijtimoiy – iqtisodiy tuzumning mahsuli. Binobarin, san'at asaridagi milliy xarakter konkret ijtimoiy – iqtisodiy davr kishilari xarakterining badiiy in'ikosi bo'ladi va, shunga ko'ra, konkret ijtimoiy – badiiy hodisadir. U yoki bu badiiy asar qaysi xalq yoki millat hayoti haqida

hikoya qilsa, shu xalq yoki millatning ruhini, an'analarini, milliy belgilarini ifodalashi tabiiydir.

“Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobida “Badiiy ijod shunday daraxtki, shoxida umuminsoniy mevalar yetiladi, ildizi esa milliy zaminda yotadi”³ deb yozganida O'tkir Hoshimov tamomila haq edi. Tashqi jihatlari bilan umuminsoniy fazilatlar aks ettirilgan badiiy asarni chuqur tahlil qilsak, unda ma'lum bir millatga xos xususiyatlarning ham qandaydir darajada aks ettirilganligini kuzatamiz.

V. G. Belinskiyning ta'kidlashicha, san'atkor o'z asarida insonni aks ettirar ekan, o'sha inson ko'lanka emas, balki jonli odamning o'zi bo'lishi kerak; u jismoniy tuzilishga, xarakterga, axloqqa, o'z odatiga, xullas, uni hayotdagi boshqa odamlardan ajratib turuvchi barcha individual xossalarga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, u muayyan millatga va ma'lum tarixiy davrga mansub bo'lmog'i darkor. Negaki, biror millat yoki xalqqa tobe bo'lmagan inson haqiqiy inson emas. Demak, badiiy asarda aks etgan milliylik san'atkorning xizmatigina bo'lib qolmasdan san'atning bevosita zarur sharti hamdir. Shu sababli, milliylik qanchalik aniq va chuqur aks ettirilgan bo'lsa, san'at asari badiiy jihatdan shu qadar yetuk bo'ladi.

O'zbek xalqining o'ziga xos urf – odatlaridan biri bo'lmish to'y marosimi hamisha shod–u xurramlik, yoshlik, go'zallik, kelajakka yaxshi umid va ezgu orzular ramzi sifatida o'tkaziladigan ajoyib bayramdir. G'oyat go'zal bo'lgan bu marosim barcha xildagi xalq san'ati, ashula, raqs bilan o'tkaziladi. U aslida asrlar osha sinovdan o'tgan, milliy asosda nishonlanadigan marosim hisoblansa – da, har bir davrda takomillashib, muttasil boyib kelgan. Bugungi kundagi to'y marosimlari bir necha asrlar oldingi marosimlardan ancha farq qiladi. Ayrim udumlar bugungacha saqlangan bo'lsa, ba'zilar rivojlanish natijasida umuman yo'qolib ketgan.

³ Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent: Sharq, 2009. 109 – bet.

“To’y” so’zi “to’ymoq”, “el-yurtga ziyofat bermoq”, “yor-do’stlar diydoriga to’yinmoq” ma’nolarini anglatib, ot so’z turkumi ko’rinishida keng qo’llaniladi. Bu so’zning izohli lug’atda uch xil ma’no qirralari keltirilgan:

- uylanish, turmushga chiqish, xatna qilish va b. munosabatlar bilan ziyofat berib, bazm – tomoshalar bilan o’tkaziladigan xalq marosimlarining umumiy nomi;
- qudalar o’rtasidagi kelishuvga muvofiq, kuyov tomondan qiz tomonga beriladigan pul, masalliq va sh.k. majmui;
- shu narsalar yuborilishi munosabati bilan kuyov xonadonida, kelishi munosabati bilan qiz xonadonida o’tkaziladigan marosim⁴.

O’zbek to’ylari shaklan rang – barang bo’lib, ular bir – birlaridan o’tkazilish tarzi, ishtirokchilar tarkibi, vazifalari hamda ijro etiluvchi aytim va qo’shiqlari jihatidan keskin farqlanadi. Bular: beshik to’ylari, xatna (sunnat) va nikoh to’ylari.

Beshik to’ylari oiladagi to’ng’ich farzandga bag’ishlab tantanali o’tkaziladi. Oilaning moddiy turmush darajasi bilan bog’liq holda beshik to’yi keyingi farzandlarga ham o’tkazilishi mumkin.

Beshik to’yi chaqaloqning chillasi chiqqandan keyin o’tkaziladi. Bolaning ona tomonidan bobosi va buvisi bosh – oyoq sarpo, yangi beshik va unga kerakli narsalarni hozirlab, to’y belgilangan kuni ularni bolaga jo’natadi. Narsalarni olib kelganlarga chaqaloqning ota tomondan buvisi va bobosi ziyofat beradilar.

Chaqaloqni yangi beshikga belab, onasi ixtiyoriga topshirilgach, barchaga osh tortiladi. Osh yeyilgach esa fotiha o’qiladi. Shu bilan beshik to’yi ham yakunlanadi.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 4 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2008. 229 бет.

Xalq o'rtasida "xatna to'yi", "sunnat to'yi", "chukron", "qo'lini halollash" kabi atamalar bilan yuritiladigan to'y marosimi o'g'il bolalarga bag'ishlab o'tkaziladi. Xatna to'yi odatda bolaning toq yoshlarida o'tkaziladi. Tasavvurlarga ko'ra, xatna bolaning juft yoshlarida o'tkazilsa, baxtsizlik keltirar emish.

Bu o'ziga xos milliy marosim haqida Hoji Muin shunday yozadi: "Bizning turkistonlilar xatna to'yig'a ko'b ahamiyat berib, bir kundan 5-6 kungacha to'y qilalar. «Bazm», «ko'bkari»lar beralar va bu yo'lda minglarcha so'mni isrof va barbod etalar. Holbuki, bu odat bizning Turkistondan boshqa o'lkalardagi musulmonlarda yo'qdir. Arabiston, Misr, Istanbul, Kafkaz, Tatariston va Eron musulmonlari bolalarining xatnasi uchun to'y bermaylar, loaqal bir necha kishini chaqirib ziyofat ham qilmaylar. Faqat payg'ambar sunnatini bajo keturmak ila iktifo etalar. Bizlarning ham bu to'g'rida alarning yo'llari ila borishimiz kerakdir. Xatna uchun qancha aqchalar isrof etib, to'y va ko'bkari bermak hojat emasdir. Hatto xatna munosabati ila bola uchun yangi ko'rpa-yostuklar yoki turli rangda necha qabat yangi kiyimlar hozirlamak ortiqchadir. Mundan boshqa mumkin qadar bolalarni kichiklik vaqtinda yangi usul ila xatna qilmoq keraqdir"⁵.

Xatna to'yining ildizlari qadim an'analarga, ya'ni bolaning go'dak yoshidan bolalik yoki o'smirlik yoshiga o'tishini nishonlash marosimiga borib bog'lanadi. Bugunga kelib, xatna to'ylarida bolaning otasi xalqni o'z dargohiga chaqirib, osh tortadi. Xatna to'yi bola maktabga borgunga qadar o'tkaziladi.

Nikoh to'yi yigit va qizlar balog'at yoshiga yetganlaridan keyin ularning xohish va istaklari bilan o'tkaziladigan marosimdir. Avvalo kelin

⁵ Hoji Muin. To'y va aza marosimi haqida // Mehnatkash tovushi, 1919. 22 – mart.

tanlab, kelinning ota – onasi rozi qilinadi va non sindiriladi. Undan keyin fотиha to'yining vaqti belgilanib o'tkaziladi. Keyin nikoh to'yi bo'lib o'tadi.

Qadimdan nikoh to'yida kelin milliy libosda ustiga paranji kiygan holda o'tirgan. Kuyov esa to'n kiygan.

To'y kuni kuyov jo'ralari bilan kelinning uyiga kelgach, kelin va kuyov nikoh qilinadi. Kuyov ziyofatdan so'ng kelinni yuklari, yanga va dugonalari hamrohligida olib ketadi. Yo'l bo'yi yor – yor aytib kuyov xonadoniga ketishadi. O'zbek yor – yorlarida sevgisiga vafo qilmagan bevafo qizlarning oh-u zorlari kuylangan.

Kuyovning hovlisiga yaqinlashganda darvoza oldida katta gulxan yoqiladi. Kelin tushgan arava yoki mashina gulxandan o'tgach, kuyov o'rtoqlari bilan kelib, kelinni ko'tarib tushirib qo'yadi. Yor – yor aytib kelinni gulxan atrofida uch marta aylantiradilar. Keyin “kelin salom” qilinadi. Unda kelin kuyovning qarindosh – urug'lariga egilib salom beradi. Nihoyat kelinni unga ajratilgan xonaga olib kiradilar. Kuyovni jo'ralari kelin yoniga kuzatib qo'yadi. Shu bilan nikoh to'yi ham yakunlanadi.

Ayrim udumlar haqida tanqidiy fikrlar bildirgan Hoji Muin nikoh to'ylarining ham ba'zi kamchiliklarini o'zining “To'y va aza marosimi haqida” deb nomlangan maqolasida sanab o'tgan: “Nikoh to'yinda ikki turli yomon odatimiz borkim, alardan bir qismining axloqiy jihatdan, ikkinchi qismining moliy jihatdan ko'b zarari bordir. Mana shul urfu rusumlarning ba'zisini butun barham bermak va ba'zisini isloh etmak lozimdir. Nikoh to'yi zohiran bizning ko'zimizga bir to'y kabi ko'runsa ham, lekin haqiqatda o'zi besh to'ydir. Chunki, “Non shikanon” (sindirish), “Fotiha”, “Nikoh”, “Ro'yi binon” (yuz ochdi) va “Domod talabon” (kuyov chaqirdi)ning har qayusi bir

to'ydirkim, bularg'a minglarcha so'm isrof bo'ladir. Bu to'ylardan «nikoh» va «ro'y binon»dan boshqalari ortuqdir"⁶.

Shu bilan birga, to'y marosimlari hudud jihatidan ham bir – biridan farq qiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida o'ziga xos bo'lgan to'y marosimlarini o'tkazish qonun-qoidolari, udumlari, aytim va qo'shiqlari, yor-yorlari mavjud.

Xalqimizning xursandchilik bilan o'tadigan bunday milliy marosimlari, jumladan, xatna to'yi, nikoh to'yi kabilar badiiy adabiyotda ham o'z aksini topgan bo'lib, adabiy janrlarning deyarli barchasida biz to'y marosimi tasvirini kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa, nasriy asarlarda bu narsa ko'proq namoyon bo'ladi. Masalan, Abdulla Qahhorning satirik hikoyalaridan biri bo'lgan "To'y" hikoyasida, Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom", "Yulduzlar mangu yonadi", Tohir Malikning "Shaytanat" qissalarida, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", Jo'rjiy Zaydonning "Farg'ona kelini" romanlari va boshqalarda.

Bundan tashqari, mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasi va teatrida katta shuhrat qozongan va eng repertuarbop dramaturg sifatida tanilgan Erkin Xushvaqto'vning "Chimildiq", "Qalliq o'yin" kabi pyesalarida ham xalqimizda mavjud to'y bilan bog'liq urf – odatlarning juda qiziqarli tasvirlanganini kuzatamiz.

Asarlarda to'y marosimi ikki xil usulda tasvirlanadi:

a) to'liq tasvirlash ("Alpomish", "Oltin yoruq", "Qo'rquq ota kitobi" dostonlari, "O'tkan kunlar" romani, "Yulduzlar mangu yonadi", "Shaytanat" qissalari va b.)

b) qisman tasvirlash ("O'tkan kunlar", "Farg'ona kelini" romanlari, "Ot kishnagan oqshom" qissasi va b.)

⁶ Hoji Muin. To'y va aza marosimi haqida // Mehnatkash tovushi, 1919. 22 – mart.

Ota – bobolarimizning o'tkir zehni mahsuli bo'lgan maqollarda ham to'y bilan bog'liq holatlarni kuzatishimiz mumkin. Masalan:

Kerilganning uyiga bor,

Maqtanganning to'yiga bor⁷.

Ushbu maqolda o'zbek xalqining kamtarligi, mehmondo'stligi kabi xislatlari o'z aksini topgan. "Mehmon otangday ulug' ", deydi xalqimiz. Har qancha mag'rur va sarbaland kishi bo'lmasin, o'zbek uyiga kelgan mehmon oldida o'zini kamtarona va sertakalluf tutishi kerak. Bu ota – bobolarimizdan qolgan, qon – qonimizga singib ketgan xususiyatdir. Boshqacha bo'lishi mumkin emas. Maqtanganning to'yiga bor. To'y xalq bilan o'tadi. To'yga izzat – ikrom qilib kelgan barcha mehmonlarga e'tibor berib, ko'nglini toppish oson ish emas. Ko'pchilikning ko'nglini topish bir kishining ko'nglini topishdan ko'ra qiyinroq.

Har kim to'ygan to'yini maqtar⁸.

Bu maqolda "to'yish" ma'nosi keng ma'noda qo'llangan, ya'ni to'yga kelib do'stlar diydoriga to'yish, yaxshi suhbat va xush kayfiyatlar bilan dasturxonga qo'yilgan noz- ne'matlarga to'yish, xush ovoz san'atkorlarning xonishlari-yu raqqosalarning go'zal xiromlariga to'yish uchun boriladi. Mabodo dasturxondagi noz – ne'matlar bekam-u ko'st bo'lib, yoningizda yaxshi suhbatdosh bo'lmasa ham to'yda o'tirgandek bo'lmaydi kishi. Aksi bo'lsa ham to'y kamchilik bilan o'tgandek tuyuladi. Har taraflama yaxshi o'tgan to'yni, albatta, barcha maqtaydi. Bu esa to'y egalariga ham xush yoqadi.

To'yga borsang, to'yib bor,

⁷ O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. 461 – betlar.

⁸ O'sha kitob. 463 – betlar.

Yomonliging qo'yib bor⁹.

Ushbu maqolni o'ziga xos to'yga boorish yo'riqnomasi deb qabul qilsa bo'ladi. Chunki to'yga kishi faqat qornini to'ydirish, tansiq taomlar yeyish uchun emas, balki vaqtini xush kayfiyatda o'tkazish va madaniy hordiq olish, yor-u do'stlar bilan diydor ko'rishish uchun boradi. Axir to'y xursandchilik, bayram, shodiyona kundir. To'yga borayotgan kishi, albatta, qalbida ezgu tilaklar bilan to'yxonaga tashrif buyurishi lozim. Birovning xursandchiligiga sherik bo'lish ham bir san'atdir.

To'yga – qo'shiq,

Azaga – yig'i¹⁰.

Kuy – qo'shiq, raqs, yaxshi kayfiyat, shodlik – xurramlik to'yning ajralmas qismi hisoblanadi. Aynan mana shular bilan kelgan mehmonlarning ham, mezbonlarning ham ko'ngli ko'tariladi. Bularsiz to'yni tasavvur qilib bo'lmaydi. O'z o'rnida, azada yig'i – sig'i bo'ladi. Chunki yaqin insonidan ayrilganlar yig'i bilan o'zini ovutadi, ko'ngli bo'shaydi.

To'yganga – to'y, to'ymaganga – tomosha¹¹.

To'y insonning eng baxtli, quvonchga to'la kuni bo'lganidan keyin unda, albatta, turli – tuman o'yin – kulgular, tomoshalar o'tkaziladi. To'yga kelgan mehmonlar dasturxondagi noz – ne'matlardan tashqari uyushtirilgan sahna ko'rinishlarini ham tomosha qilib, kayfiyatlari ko'tarilishi tabiiy bir holdir. Maqolda ana shu holatlar nazarda tutilmoqda.

O'g'ilning to'yi – o'yin,

⁹ O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. 462 – bet.

¹⁰ O'sha kitob. 462 – bet.

¹¹ O'sha kitob. 462 – bet.

Qizning to'yi – qiyin¹².

Bu maqol zamirida o'z farzandini begona joyga berishning qiyinligi, qizini uzatgan ota – onaning to'ydan keyin farzandini o'ylab qayg'urishi kabilar nazarda tutilgan. Bir kun ichida farzandi uyidan ketganiga ota – onaning ko'nikishi qiyin bo'ladi. O'g'ilni uylantirgandan keyin ham u ota – onasining yonida bo'ladi, kelin ham ular bilan birga yashaydi. Shuning uchun ham ota – onalar o'g'lining to'yida bitta farzandi ikkita bo'lganiga quvonib o'ynaydi. Qizining to'yida esa bolasining o'zidan uzoqlashayotganiga xafa bo'ladi. Lekin qizining baxtini topganidan xursand ham bo'ladi.

To'yning bo'ldi – bo'ldisi qiziq¹³.

To'yning o'ziga yarasha katta tashvishlari bo'ladi. To'y qiluvchi kishilar ana shu marosim ishlari bilan ovora bo'lib vaqt o'tganini ham bilmay qolishadi. To'ydan bir necha kun oldin tayyorgarlik, to'y o'tgandan keyin yig'ishtirish ishlari bilan bo'lishadi. To'y arafasida yaqin qarindoshlar bir necha kun davomida to'yxonada xizmatda bo'lishadi. Yaqinlar bir - birining diydoriga to'yishadi. Bu kunlarda qiziq voqea – hodisalar ham bo'ladi. Maqolda “bo'ldi – bo'ldi” deya to'y tayyorgarliklari nazarda tutilmoqda.

To'yga borsang, burun bor,

Burun borsang, o'rin bor¹⁴.

To'y ko'pchilik bilan bo'ladi. Unga qarindosh – urug'lar, qo'ni - qo'shnilar kelishadi. Maqolda “burun” so'zi ko'p ma'noli so'z sifatida qo'llangan bo'lib, “ertaroq”, “oldinroq” degan ma'noni bildirmoqda. Demak, to'yga ertaroq borgan kishi yaxshi joyda, ko'ngliga xush yoqqan joyda

¹² O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. 463 – bet.

¹³ O'sha kitob. 462 – bet.

¹⁴ O'sha kitob. 462 – bet.

o'tirish imkoniga ega bo'ladi. Kech qolgan esa bundan bebahra qolishi mumkin.

Xalq og'zaki ijodi janrlaridan ertaklarning, asosan, oxirida qahramonlar murod – maqsadiga yetadi va ertak to'y – tomoshalar bilan yakunlanadi. Chunki ertak yaxshilik bilan tugashi kerak. Masalan, “Kenja botir”, “Qorasochxon”, “Gulqahqah”, “Erkenja”, “Oltin qiz”, “Ozodachehra”, “Sunbul bilan Gul”¹⁵ va boshqalar. Bu ertaklarda to'y marosimi ikki xil holatda bo'lib o'tadi. Birinchisi, yosh kelin – kuyovning oila qurishiga bag'ishlab o'tkazilgan nikoh to'yi bo'lsa, ikkinchisi esa bosh qahramonlarning ezgu niyatlariga yetganligi munosabati bilan o'tkaziladigan to'ydir. Har ikkala holatda ham qirq kecha-yu qirq kunduz to'y– tomosha bo'ladi va xalqqa osh beriladi.

Ertaklardagi to'y marosimlarining ko'pchiligi qisman tasvirlanadi, ya'ni to'y barcha ikir – chikirlarigacha bayon qilinmaydi. Faqatgina qirq kecha – kunduz xalqqa osh berilganligi, qahramonlarning murod – maqsadlariga yetishganligi aytiladi, xolos.

Qadimiyatning buyuk bir ehsoni bo'lgan, ajdodlardan avlodlarga og'zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorliklardan hisoblanadigan dostonlarning esa, voqealar rivojiga qarab, boshida ham, o'rtasida ham, oxirida ham to'y marosimi tasviri keltirilishi mumkin. Bunga misol qilib “Alpomish” dostonini keltirishimiz mumkin.

Dostonlar gultoji hisoblanmish “Alpomish” dostonida bir oila taqdiri tasviri misolida, taqdir taqozosi bilan bo'linib ketgan qadimiy bir o'zbek urug'ining qayta birlashishini badiiy aks ettirish orqali millat birligi g'oyalari, uning qahramonona shon – shuhrati, el – yurt farovonligi va oila baxti, Vatan ravnaqi uchun kurash baralla kuylangan. Shuning uchun ham biz bugun uni mustaqil rivojlanish davrida millat birligi va ma'naviy uyg'onishi, milliy

¹⁵ O'zbek xalq ertaklari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2006.

g'urur va o'z – o'zini anglash ramziga aylangan doston sifatida baholamoqdamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek: “Alpomish” – o'zbekning o'zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak – yuragidan chiqqan, ota – bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o'tkazib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir.

Aslida, xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo'lsa, “Alpomish” ana shu dostonning shohbaytidir. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot – mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini yo'qotmagan xalqimizning bag'rikenglik, matonat, oliyjanoblik kabi ezgu fazilatlari o'z ifodasini topgan”¹⁶.

Doston ikki qismdan iborat bo'lib, jami dostonning to'rt o'rnida to'y marosimi tasvirlangan. Asar boshida Boybo'ri va Boysari obrazlarining kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlar berilgandan so'ng, *“o'n olti urug' Qo'ng'irotda bir chufuron”*, ya'ni xatna to'y tasviri beriladi:

“Shu to'yga barcha xaloyiqlar yig'ildi. Biylar ham to'yga keldi. To'ydagi kattalar ilgorigiday izzat qilib, qadimgiday otini ushlamadi. Biylar: “Mazmuni bu odamlar bizning kelganimizdan bexabar qoldi”, - deb otini o'zi boylab, ma'raka – maylisga kelib o'tira berdi. Biylarning ko'nglini xushlamadi, otini ushlamadi, ostiga libos tashlamadi; osh tortdi, suzgan tovoqni choshlamadi; osh tortganda, oshning ketini – ko'tini tortdi. Bu qilgan xizmatni biylar ko'rib, ilgari izzat ko'rib yurgan odamlar – biylar aytdi:

- Bizlar o'n olti urug' Qo'g'irotning boyi ham shoyi bo'lsak, bizlar kelsak, otimizni ushlar edinglar, ko'nglimizni xushlar edinglar, ostimizga libosni tashlar edinglar, bu daf'a bizdan nima ko'tohlik o'tdi, bizni bunday behurmat qildinglar.

¹⁶ Karimov I. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. 8– tom, 78 – 80 – betlar.

Bu so'zni eshitib, o'n olti urug' Qo'ng'irot elida payga betdan turib bir chapanitob boybachchasi aytdi: - Ey, Boysari bilan Boybo'ri! Bul to'y o'g'illining o'g'lidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?! ”¹⁷.

Ko'rinib turibdiki, o'zbek xalqi qadimdan bolajonligi bilan ajralib turgan. Boybo'ri shoh bo'lsa – da, Boysari boy bo'lsa – da, ammo ularning har ikkalasi ham befarzand edi. Demak ularda xalqqa to'y berish uchun sabab yo'q. Xalq esa xoh u boy bo'lsin, xoh u shoh bo'lsin, farzandsizlarni o'z izzatlariga loyiq ko'rmaydi. Haqiqatdan ham o'zbek xalqi etnografiyasiga nazar tashlar ekanmiz, to'yga tashrif buyurgan farzandsiz kishilarga, “Kasofati boshqalarga urmasin” deb irim qilib, to'yda ularga hurmat – ehtirom ko'rsatilmagan va eng pastdan joy berilgan yoki bo'lmasa ular uchun maxsus qora o'tov yasashgan, befarzandlar alohida mana shu qora o'tovga kiritilgan. Bundan tashqari, nikoh marosimlarida kelin – kuyovni “yomon ko'z”dan, nazar – nafasdan saqlash uchun eskicha irimlardan ularga isiriq tutatish, badavlat va shirin yashashni tilab, ustidan sochqi (pul va shirinliklar) sochish, uvali – juvali bo'lishi uchun kelin – kuyov tizzasiga bola o'tqazish, ko'p bolalilarning xizmat qilishi va farzandsizlarni kelin – kuyovga yaqinlashtirmaslik kabi amal qilinadigan odatlar hozir ham o'z mohiyatini butunlay yo'qotgan emas. Bu holatlar, o'z o'rnida, qator badiiy asarlarda ham aks ettirilgan.

“Alpomish” dostonidagi ikkinchi to'y Boybo'ri bilan Boysarining farzand ko'rishiga bag'ishlanadi. Bu to'y ham, o'sha davr taomiliga ko'ra, qirq kecha – yu qirq kunduz bo'lib o'tadi. To'y tasviri orqali xalqning jipsligi, bir – biriga oqibatlilik, mehr – muhabbati ko'rsatilgan. Dono xalqimiz “To'yganga – to'y, to'ymaganga - tomosha” deganidek, to'yga

¹⁷ Alpomish. – Toshkent: Sharq, 2010. 12-bet.

kelgan xaloyiq doshqozonlarda damlangan oshlardan yeb, turli – tuman uyushtirilgan tomoshalarni ko'rib ketishadi.

To'yning oxirgi kunida Shohimardon pir darvesh kiyimida keladi. Boybo'ri bilan Boysari uni tanib izzat – ikrom bilan ichkariga taklif qilishadi. Shohimardon pir Boybo'rining o'g'liga Hakimbek, qiziga esa Qaldirg'ochoyim, Boysarining qiziga Barchin deb ism qo'yadi. Hakimbekning o'ng kiftiga besh qo'lini uradi. Besh qo'lining o'rni dog' bo'lib, besh panjaning o'rni bilinib qoladi. Shohimardon pir : *“Bu ikkovi er – xotin bo'lsin, Hakimbek bilan hech bir kishi barobar bo'lolmasin, omin ollohu akbar”*¹⁸, - deb jo'nab ketadi. Shundan keyin to'y tarqab, hamma o'z manziliga ravona bo'ladi.

Dostondagi uchinchi to'y Alpomish bilan Barchinning nikoh to'yi hisoblanadi. Marosim Chilbir cho'lida bo'lib o'tadi. Alpomish va Barchinoyning baxt sari ancha mashaqqatli yo'llari nihoyat nikoh to'yiga yetib keldi. Ushbu to'y juda jozibali, milliy chizgilar yorqin ifodalangan holda batafsil tasvirlangan:

Xabar bordi shunday otlar choptirib,
Namoyishga oq o'tovlar yoptirib.
Eli - xalqi – barcha yig'ilib keladi,
Bekni siylab, yaxshi xizmat qiladi,
Barchinoyga to'y qilmoqchi bo'ladi.
Obgardonin ortib oshpaz keladi,
Chilbir cho'lda to'yni boshlab qoladi,
Beshta – o'nta uloq tashlab turadi,
Bir chetida ko'pkari ham qiladi¹⁹.

¹⁸ Alpomish. – Toshkent: Sharq, 2010. 14 – bet.

¹⁹ O'sha kitob. 159 – bet.

Oq rang har doim poklik, ezgulik va yaxshilik timsoli bo'lgani uchun qadimda ota – bobolarimiz to'y kunlari oq o'tovlar yopishgan. Bugungi kunda kelinlarning oq libos kiyishi ham ana shu odatlarga borib taqalsa ajab emas.

O'zbek xalqi tantiligi bilan azaldan mashhur. Bu to'y tasvirini o'qir ekanmiz, bunga yana bir bor amin bo'lamiz. Darhaqiqat, qirq kecha-yu qirq kunduz davom etgan to'yda “*behad qo'y-u so'qimlar*” so'yib hammani oshga to'ydirish, yana shuncha kun davomida “*katta sarka* (ya'ni echki) *olapocha*” tashlab uloq o'tkazish, bunday tantilik faqat o'zbek xalqiga xos desak mubolag'a bo'lmaydi.

To'yda to'qqiz tovoq marosimi ham tasvirlangan bo'lib, unda kuyov oldiga to'qqiz ta tovoqda taom kelin yangalari tomonidan beriladi. Kuyov ovqatlarni yeb, tovoqlarni tillalar bilan to'ldirib qaytarishi kerak bo'ladi :

O'zbekning rasimi shunday bo'ladi:

Qiz-u juvon bari yig'ilib keladi,

Ayollar to'qqiz tovoq qiladi,

Kuyovning oldiga shunday boradi,

Op borgan taomni no'karlari yeb,

Tovog'iga tanga-tilla soladi.

Ne bir xotinlar vaqti xush bo'p boradi,

Ancha tanga bunda unum qiladi²⁰.

Shuningdek, “Qiz opqochdi” marosimi ham bo'lib o'tadi. Bunda kelinning dugonalari Barchinoyni yashiradilar. Kelinlar qizlardan Barchinni so'raydilar. Shu paytda mullaning ikki vakili kelib qizning ixtiyorini so'raydi. Barchin o'zbek qizlariga xos hayo bilan indamay turadi. Buni “Qiz so'ylatar” marosimi deydilar. Qizni gapirishga ko'ndirgan kuyovdan ancha pul olar ekan. Shundan so'ng guvohlar yig'inga keladi va nikoh xutbasi

²⁰Alpomish. – Toshkent: Sharq, 2010. 160 – bet.

o'qiladi. Hakimbekni baxmal o'tovga – chimildiqqa kirgizmoqchi bo'lganlarida xotinlar “kampir o'ldi”, “it irillar” kabi rasmlarni o'tkazadilar. Bunda kuyovning *“oldiga dastarxon solib, qo'ylarning to'shini pishirib olib kelib, bularning oldiga qo'yib, xo'p yeb, to'yib, kuyov no'karlarga to'ppi, ro'mol, sarpoylar berib, hammasi o'z rasmi – qa'dasini qilib, kuyov no'karlar chiqib ketdi”*²¹. Keyin xotinlar “choch siypatar”, “qo'l ushlatar” kabi rasm – rusumlarini qiladilar. Barcha rasmlarni o'tkazib bo'lgach yangalar ham chiqib ketadilar. Shunday qilib ikki yosh bir – biriga yetishadi:

Eshitingiz, beklar, oh-u zorini,
O'lib ketgan necha dushmanlarini,
Nikoh qilib oldi Barchin yorini,
Ko'ngildan chiqarib g'uborini,
O'ynab – kulib tarqatgandir cherini,
Olgandir shundayin zulfakdorini,
Ko'ngil xushlab bunda bul beklarini²².

Yuqoridagi to'y tasvirlarida xatna to'y, nikoh to'y kabi marosimlarni tahlil qildik. Ikkinchi qismning oxirida ham to'y marosimi keltirilgan bo'lib, bu to'y oldingi to'ylardan farqli o'laroq, Alpomishning qaytishiga bag'ishlanadi. Tanti o'zbek xalqi har qanday shodiyonani katta tantanaga aylantirib butun xalq bilan baham ko'radi: *“Kun kech bo'lib, yig'ilib qildi maslahatdi, qulluq bo'lsinga kelgan odamlarning oldiga taom tortdi. Qildi ziyofatdi, yugurib qilib xizmatdi, shuytib oqshom o'tdi. Erta – mertan tong otdi, to'y taraddusida bo'p yotdi”*²³.

To'y juda ajoyib bo'lib o'tadi. Butun xalqga qirq kecha-yu qirq kunduz osh beriladi. Qator – qator qo'ylar so'yiladi. Oshpazlar-u novvoylar tinimsiz osh-u non pishiradilar. Butun Qo'ng'irotdagi beva-yu bechoralar to'yga kelib

²¹Alpomish. – Toshkent: Sharq, 2010. 160 – bet.

²²O'sha kitob. 161 – bet.

²³O'sha kitob. 386 – bet.

oshga to'yib ketadilar. Har tarafdin chavandozlar kelib ko'pkari o'ynaydilar. Kelgan mehmonlar qorinlari to'ygach o'yinni tomosha qiladilar. Chavandozlar o'yinga juda berilib ketadilar. Bakovul zo'r otchoparlarga adras – kimxoblar kiydiradi. Shunday qilib, qirq kundan keyin to'y tarqaydi. Chavandozlar ham javob olib o'z manzillari sari jo'naydilar.

Katta shodiyona – to'y-bazmlarni o'tkazish sharq xalqlariga xos xususiyatdir. Biz yuqorida o'zbek xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lmish "Alpomish" dostonida tasvirlangan to'y marosimlarini tahlil qildik.

Shuningdek, uyg'ur xalqining mashhur "Oltin yoruq" eposida ham milliy nikoh marosimi tasvirini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, dostonning "Oltin qon"dagi to'y" deb nomlangan qismida uyg'urlarning Iskandar Zulqarnayn hujumiga qarshi kurashi voqealari tasvirlangan. Ikki qarama – qarshi tomon o'rtasida juda kuchli jang bo'lib o'tadi. Jangda Tungo Bilga xoqon boshchiligidagi uyg'ur lashkarlari o'zlarining mardonavor kurashlari bilan ko'p sonli yunon askarlarini sarosimaga solib qo'yishadi. Yunon suvoriylarining talon – taroj qilgan oltinlari halok bo'lganlar jasaki bilan birga qonga belanib yerga sochilib yotadi. Shundan keyin mazkur jang bo'lib o'tgan yerlardagi ulkan tog' "Oltin tog' " deb atala boshlaydi.

Uyg'urlarning jangdagi ajoyib mahoratini ko'rgan Iskandar Zulqarnayn urushni davom ettirish niyatidan voz kechib, Tungo Bilga xoqon bilan sulh tuzadi.

Dostonning bosh qahramoni Arslon vatanining ozodligi, xalqining osoyishtaligi yo'lida hech narsadan qaytmaydigan mard va jasur o'g'lon bo'ladi. U yobg'u Qora Boqshining qizi Bolqizga ko'ngil qo'yadi. Urush tugab, muzokaralar imzolangach Arslonning otasi – sobiq peshqadam jangchi Alp Qayum va xoqonning o'g'li Bars Tegin birgalikda Yobg'u Qora Boqshi huzuriga sovchilikka boradilar. Yobg'u Qora Boqshi Arslonning urushda ko'rsatgan qahramonliklarini ko'rgach, unga havas bilan qaragan edi. U

Arslonning munosib kuyov bo'lishiga ishonib chuqur faxrlanadi. Kelgan sovchilarga mamnuniyat bilan rozilik bildirib, quda va elchiga bittadan shoyi to'n tortiq qiladi. Shundan keyin hamma bilan maslahat qilib, bu tadbir barchaning ko'ngliga ma'qul tushganidan so'ng to'y tadorigi boshlanadi.

O'zaro kelishib to'y marosimini g'alaba qozonilgan "Oltin qon"da o'tkazishga qaror qiladilar. To'yda yigitlar Arslonga kimxob to'n kiydirdilar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, kuyovning to'yda to'n kiyishi an'anasi ko'plab turkiy xalqlarda kuzatiladi. Qizlar esa Bolqizga oltin va munchoqlardan yasalgan gultojni kiydirishdi. To'yga kelgan barcha mehmonlar murod – maqsadiga yetgan yoshlarni bugungi baxt oqshomi bilan tabriklaydilar. Musiqa va kuy – qo'shiq navolari ostida ajoyib bayram bo'lib o'tadi. Yigit – qizlar sho'x qo'shiqlarga jo'r bo'lib, qo'l ushlashib o'ynashar, ham kelin – kuyovning quvonchiga sherik bo'lishar, ham zafar sururini surishar edi. Chodirlarda o'tirgan oqsoqollar esa qimizxo'rlik qilib, yoshlik damlarini eslashar, vatan yo'lida chekkan zahmatlarini aytib quvonishar, kuch – quvvatga to'lgan yoshlarni duo qilishar edi.

Bundan tashqari, turkiy xalqlar og'zaki ijodining nodir namunasi bo'lmish "Qo'rqut Ota kitobi" eposida ham to'y marosimi tasviri keltirilgan. Hozirgi ozarbayjon, turkman, turk xalqlarining ajdodlari bo'lmish O'rta asrlardagi o'g'uzlar hayoti, tarixi badiiy aks ettirilgan bu asarda O'rta Osiyoning boshqa turkiy xalqlari hayotiga mushtarak bo'lgan manzaralar, elementlar ham mavjud.

IX – XIV asrlar mobaynida yaratilib, XV asrda tartib berilgan, o'n ikki hikoyadan tashkil topgan mazkur asarda bu davrdan avvalgi bosqichlarga, xususan, islomgacha bo'lgan tarixga oid turkiy xalqlarning hayoti, etnik hodisalar ham o'z ifodasini topgan.

Doston boshidan oxirigacha qahramonlik pafosi hukm suradi. Shu ma'noda u qo'rqqoqlik, noshudlik, sotqinlik, xudbinlik va har qanday zo'ravonliklarga qarshi aybnomaday o'qiladi.

Qo'rqt ota kitobning bosh qahramoni emas. Lekin uning fikrlari, fikrlarining timsoli, jami hodisalar va qahramonlar taaqdirida tutgan o'rniga ko'ra u butun asarni birlashtirib turuvchi qahramon rolini o'ynaydi. Qo'rqt ota xon, beklargina emas, xalqning ham dono maslahatchisi. U bamisoli adolat timsoli, ro'yobga chiqajak orzular darakchisi, baxt va baxtsizlikni oldindan aytub beruvchi zakiy.

To'y tasviri asarning "Dirsa xon o'g'li Bo'g'och xon bayon etar, Xonim hey" deb nomlanuvchi bobidan joy olgan bo'lib, to'y quyidagilar bilan boshlanadi:

*"Bir kun Komxon o'gli xon Boyintur oyoqqa qalqdi. Chodirlari yer yuzini, ola soyaboni ko'k yuzini to'sdi. Minglab ipak g'alivir(gilam) yerga to'shaldi. Xonlar xoni xon Boyintur yilda bir marta to'y berib, O'g'uz beklarini chaqirardi. Bir kun to'yda otdan – ayg'ir, tuyadan – bo'g'ro, qo'ydan – qo'chqor so'ydiridi"*²⁴.

Qadimdan turkiy xalqlarda to'y kuni oq, qizil, qora kabi turli ranglardagi o'tovlar yopilgan. Har bir o'tov o'z vazifasiga ega bo'lib, o'g'li borlar oq o'tovga, qizi borlar esa qizil o'tovga joylashtirilgan. Befarzandlar qora o'tovga olib kirilib, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatilmagan. Shu udumning "Qo'rqt ota kitobi" eposida ham o'z aksini topganligini kuzatishimiz mumkin:

"O'g'li borni oq o'tovga, qizi borni qizil o'tovga qo'ndiring, kimningki o'g'li – qizi yo'q bo'lsa, qora o'tovga o'tkazing, qora kigiz tashlang, oldiga qora qo'yning sonidan qo'ying, yegani yesin, yemagani ketsin. O'g'li – qizi

²⁴ Қўрқут ота китоби // Ёшлик, 1988. 5 сон, 41 – бет.

bo'lmaganni egam qarg'agandir, biz ham qarg'armiz"²⁵, deb buyruq beradi Boyintur xon. Xizmatkorlar bu buyruqga yugurib – yelib amal qilishadi.

O'g'uz beklari birma – bir kirib kelib, yig'ila boshlaydi. Dirsaxon degan bekning o'g'li ham, qizi yo'q edi. Bu bek qirq yigitini yoniga olib to'yxonaga kelganida, xizmatkorlar uni qora o'tovga olib kirishadi, oldiga qora qo'yning yaxnasini olib kelib qo'yadilar. Shunda Dirsaxonning jahli chiqib, *"Boyintur xon Mandan na o'ksuklik ko'rdi? Qilichimdanmi? Dasturxonimdanmi? Mendan past kishilarni oq o'tovga qo'ndirdi, mening xatom nadirkim, qora o'tovga o'ykazdi?"*²⁶, deya savol beradi.

Kishilar unga Boyintur xonning *"O'g'li – qizi bo'lmaganni egam qarg'agandir, biz ham qarg'armiz"*, degan gaplarini aytganlarida Dirsaxon xafa bo'lib to'yxonadan chiqib ketadi.

Xullas, dostonda qadim ota – bobolarimizning rasm - rusumlari bilan bog'liq ko'plab holatlarni kuzatishimiz mumkin. Ularning ko'pchiligi bugun unutilib ketgan bo'lishiga qaramay, bugungi urf – odatlarning asl ildizlarini ana shu dostonlar asosida talqin qilsak, bizningcha, to'g'ri bo'ladi.

²⁵ Қўрқут ота китоби // Ёшлик, 1988. 5 сон, 41 – бет.

²⁶ Қўрқут ота китоби // Ёшлик, 1988. 5 сон, 41 – бет.

1.2. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida to’y tasviri.

Layli va Majnun haqidagi qissa qanchalik g’amgin va mashhur bo’lsa, shunchalik qadimiy hamdir. Ushbu mavzuda adabiyot olamida salkam 13 asrdiki, she’r va doston bitilib keladi. Qissaning kelib chiqish manbai qadim arablar hayoti bilan bog’liq voqealarga borib taqaladi. Bu haqda VIII – X asrlarda yashagan Abu Bakr Al – Volibiy (“Devoni Majnun”), Abu Muhammad Qutayba (“Kitob – ush – she’r va sh- shuaro”), Ad – Dinovariy, Abul Faraj Isfahoniy (“Qo’shiqlar kitobi”) kabilar o’z asarlarida xabar beradilar. Manbalarda bu qissaning turli versiyalari mavjuddir. Mutaxassislar orasida bu borada ikki fikr bor: ayrimlar Majnunni tarixiy shaxs, oti Qays Ibn Mulavvah, yoshligida tuya boqib yurganda amakisining qizini sevib qolgan, she’rlar yozgan, devon ham tuzgan, u haqda ko’plab rivoyatlar, hikoyatlar yaratilgan, deydilar. Ikkinchi bir fikrga ko’ra, u to’qima (yig’ma) obraz.

Qays va Layli bir – birlarini yaxshi ko’radilar. Layli bu sirni oshkor etmaslikka harakat qiladi va Majnunni ham sir saqlashga undaydi. Biroq tobora zo’rayib borayotgan sevgi alangasi Majnun ahvolini og’irlashtira boshlaydi. U o’z she’rlarida endi faqat Laylinigina kuylashga o’tadi. Majnunning sevgisi oshkor bo’ladi. Majnunning otasi Laylining uyiga borib, Laylini o’gliga so’raydi Laylining otasi qizini unga bermaydi. Qays Layli ishqida butunlay o’zini yo’qotadi. O’g’lini og’ir ahvolda ko’rgan ota, boshqa chora topolmagach, o’ziga yaqin kishilarning maslahatlari bilan uni davolash uchun Makkaga olib boradi.

Kabaga kirganda Majnun otasi uqtirganidek “dardiga” shifo tilamay, balki Layli ishq otashining qalbida yanada kuchli alangalanishini tilaydi. Otasi uning harakatlarini ko’rib, davolanishi mumkin emasligiga ishonch hosil qiladi.

Ular Makkadan qaytayotganda Majnun sahroga chiqib ketadi, vahshiy hayvonlar bilan do'stlashadi. Odamlar uni telba (majnun) deydilar. Shu tarzda yigit bilan qiz bir – birlariga yetisholmay, vafot etadilar...

Nizomiy Ganjaviy birinchi bo'lib, ushbu qissani yaxlit bir dostonga aylantirdi. Uning bu dostoniga 118 ta nazira bitilgan. Shulardan 67 tasi fors, 37 tasi turkiy tilda. Shuningdek, kurd (7), urdu (7), panjob (2), afg'on, arman, gruzin tillarida ham yozilgan. Rus shoiri V. Xlebnikov 1911 – yilda shu mavzuda “Medjnun i Leyli” nomi bilan doston yozgan.

Turkiy adabiyotda bu mavzuni Alisher Navoiy boshlab bergan. Fuzuliy uning izidan borib “Layli va Majnun” dostonini yozdi. O'zbek xalq og'zaki ijodida ham shu nomda doston yaratilganki, bu mazkur asarning xalqimiz ichida nechog'lik shuhrat qozonganligidan darak beradi. Bu xalq dostoni Fozil Yo'ldosh o'g'li tilidan yozib olingan.

Alisher Navoiy “Xamsa”sining uchinchi dostoni bo'lmish “Layli va Majnun” 1484 – yilda yozilgan mungli ishq qissasi bo'lib, Navoiyning o'zi bu dostonni “*firoqnoma*”, “*dardnoma*” deb ataydi, hajmi 38 bob. Vazni haqida gapirsak, aruzning hazaji musaddasi axrabi maqbuzi makfuf o'lchovidadir.

Ulug' san'atkor va donishmand mutafakkir Alisher Navoiy “Layli va Majnun” she'riy dostonini yozishga kirishar ekan, bu ko'hna afsonani yangi mazmun bilan boyitib, unga yangicha ruh va bo'yoq berishga harakat qiladi. Bu muddao uni ijodiy izlanish yo'liga boshlaydi. U o'tmish yodnomalarini sinchiklab tekshiradi : muarrixlar bitib qoldirgan kitoblarni, roviylar aytgan rivoyatlarni, baxshilar kuylagan qissalarni, xalq to'qigan afsonalar, ertaklar, hatto qo'shiqlarni birma – bir ko'zdan kechiradi. Nihoyat, katta ishtiyoq va ixlos natijasida yangi mazmun va bo'yoqdagi ishq qissasini yaratadi.

Dostonda 2 ta nikoh to'yi tasviri keltirilgan. Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi to'y epizodi bu nomda yaratilgan boshqa bir qator

dostonlardan farq qiladi. “Birinchidan, Amir Xusravning dostonida Layli boshi ochiqligicha qoladi. Navoiy dostonida Majnun Navfalning qiziga uylangan kechada Layli bilan Ibni Salomning ham nikoh to’yi bo’ladi. Ikkinchidan, Navoiy dostonida Navfal qizining o’z sevgan yori bo’lib, u maxfiy ravishda shu uyda bekinib turadi va har ikki yoshni o’ldirishni mo’ljallaydi. Majnun o’zining beparvoligi tufayligina uylanishdan bosh tortmaydi, balki u birovga yaxshilik ham qilmoqchi bo’ladi. Qallig’ini rad etib, u shu ishi bilan ikki yosh navqironni baxtiyor qiladi. Majnun qizga baxt tilab aka-singil tutinadi-da, chiqib ketadi”²⁷.

Birinchi to’y tasviri 30 – bobdan joy olgan bo’lib, Majnun bilan Navfal qizining nikohiga bag’ishlanadi. To’y tasviri ota – onasi qarindosh – urug’lari bilan Majnunni yasatib Navfalning uyi tomon olib borishlari bilan boshlanadi:

Majnunni yasab libos birla,
Tun – kun kibi kishu os birla.

Hech ish bila favt qilmay avqot,
Navfal sori azm qildilar bot.

Ul ham chu eshitti mojaroni,
Jam’ ayladi xesh-u aqraboni.

Jashn anjumanin azim qurdi,
Ul xaylni bazm aro tushurdi.

Oyini tarabg’a qo’ydilar yuz,

²⁷Ахмедов Т. Алишер Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” достони. – Тошкент: Фан, 1970. 53 – бет.

Ichku edi necha kecha-kunduz²⁸.

Ayrim tadqiqotlarda qayd etilishicha, Navfal Majnunni o'z qiziga uylantirish uchun uning otasini uyiga taklif etadi. Lekin xalqimizning urf – odatlarini yaxshi bilgan Navoiy bunday tasvirlashi mumkin emas. Chunki qiz otasining bunday gapirishi o'zbek xalqi mentalitetiga xos emas. G'urur, or – nomus kabi xislatlar ustun bo'lgan ota hech qachon bunday taklifni birinchi bo'lib bildirmaydi.

Majnunning otasi quda bo'lish niyatida kelayotganini eshitgandan so'ng Navfal ham ularni iliq kutib olib, katta to'y marosimini boshlab yuboradi. Mehmonlarni bazmga to'plab, xursandchilik qilishadi.

Kelin bilan kuyovning har ikkalasini zeb – ziynatlar bilan yasantirdilar. Kelinni paranji va 9 qavat niqob va pardalar ichiga qo'ydilar. Kuyovni bazmga keltirib, odamlar orasiga o'tqizdilar. Xatib kelib ularning ikkisini nikoh qildi, odamlar kelin bilan kuyov boshlaridan ko'p kumosh va oltin tangalar sochadilar:

Oy birla quyoshni bog'ladi aqd,
Boshi uza sochtilar base naqd.

Chun mehr kelin kibi yoshundi,
Tun yerga kuyov kibi yukundi.

Gardun ko'rubon bu ish muvofiq,
Kelturdi to'quz tabaqda sochiq.

Ul uygaki urmish erdilar taxt,
Tuxt ustida solmish erdilar raxt.

²⁸ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2006. 158 – bet.

Boshladilar ul ikkovni xandon,
Yo'q kulgu vale alarg'a chandon²⁹.

Kelin bilan kuyov uchun uy ichkarisida taxt yasatilgan bo'lib, o'yin-kulgi bilan bu ikkovini uyga kirgizadilar. Lekin Majnun bilan qiz also kulmas edilar. Chunki bu to'y ota – onalarning xohishiga binoan o'tkazilgan edi. Ikki yoshni tanho qoldirib parini o'z xaridoriga topshirdilar. Navfal uy atrofini odamlardan xoli qildi. Shunday qilib, to'y tarqaydi.

Navfalning qizi Majnunning oyog'iga tiz cho'kib, uning ham ko'ngil qo'ygan kishisi borligini, faqat ularning sevgisini hech kim bilmasligini aytadi. Majnunni ishq makonining sultoni deya ta'riflaydi va uni o'z yoriga sodiq qolishga undaydi. Majnun bu gaplarni eshitgach uydan chiqib ketadi.

Dostondagi ikkinchi to'y Ibni Salom bilan Laylining nihok to'yi hisoblanadi. To'y tasviri asarning 31 – bobida keltirilgan:

Ham Ibni Salom ittifoqi,
Soz ayladi uylanur yaroqi.

Har neki kerak qilib murattab,
Layli hashamig'a surdi markab³⁰.

Ko'proq aldovdan iborat bo'lgan falak Majnunni uylanishga buyurgan damlarda, Ibni Salom ham to'y taraddudini boshlab yubordi va Layli qabilasi tomon yo'l oldi. Ular ham Ibni Salomning daragini eshitib ziyofat uyushtiradilar. Kelgan mehmonlarni haddan ziyod tantanalar bilan kutib oladilar va bir necha kun-u tun may bazmi qurdilar. Bu o'rinda Navoiy ichkilik nihoyatda ko'p ichilganini, kechalar ham, kunduzlar ham may-u sharobsiz o'tmaganligini alohida ta'kidlaydi:

Xaylini dag'i tushurdilar bot,

²⁹ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2006. 159 – bet.

³⁰ O'sha kitob.164 – bet.

Bazm ichra qadah kelturdilar bot.

Ul nav'ki rasm erur ziyofat,
Aylab anga dag'i ko'p izofat.

Aysh ayladilar necha tun-u kun
Kim, ne kuni maysiz erdi, ne tun³¹.

Nihok tuzish soati kelib, belgilangan paytda qabila ahli ham to'plandi. Ichkilik ichish to'xtatilib, ichimliklar yig'ishtiriladi. Xatib kelib, nikoh ahdi bilan Layli va Ibni Salomni bir – biriga bog'ladi. Shundan keyin Ibni Salom Layli harami tomon yo'l oladi:

Chun topti nikoh ishi saranjom,
Layli haramig'a urdilar gom.

Kim, mayl etibon tuman jafog'a,
Bergaylar ul oyni ajdahog'a³².

Bu o'rinda Navoiy Laylini oyga, Ibni Salomni esa ajdahoga qiyos qilish orqali farishtaday Laylini zolim va hirs bandasi bo'lgan battol Ibni Salomga nikohlanishi noto'g'ri ekanligini obrazli tarzda tasvirlaydi. Ibni Salom na sevgining ahamiyatini, na iztirobli damlarning kuchli ta'sirini va na yor vaslining shirin xayollaridan bahramand bo'lishni bilmaydigan kishi edi. Laylining otasiga o'zining davlati bilan manzur bo'lgan Ibni Salom Laylining hurmatini qozona olmaydi. Chunki unda Majnunga xos aql – zakovat, pok va samimiy sevgi, oliyjanoblik kabi fazilatlardan asar ham yo'q edi.

³¹Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2006. 164 – bet.

³²O'sha kitob. 164 – bet.

Bu “ajdaho” Laylini yutishga ulgurolmay qoladi. U o’z zahri bilan zaharlanadi. Ibni Salom tabiatida xafaqon kasali bor edi. Agar mayni ko’p ichsa, shunday to’lg’anishga tushar ediki, hatto nafasi ham tutilib qolar edi. To’y arafasida bir necha kun juda ko’p ichib qo’yib, ichkilikdan qo’zg’aydigan kasali yana tutadi:

Ta’bi xafaqondin erdi ma’lul,
Ko’p bo’lsa edi qadahqa mashg’ul.

Andoq solur erdi jismig’a pech
Kim, kelmas edi anga nafas hech.

Ichti necha kun chu bemadoro,
Ul zahmati bo’ldi oshkoro.

Ul nav’ki tarki hush qildi,
O’lgan kishilar kibi yiqildi.

Ul bo’ldi hayotidan chu majruh,
Motamg’a mubaddal o’ldi ul sur³³.

Ibni Salom hushidan ketib, o’lgan kishidek yiqiladi. Shunday qilib, to’y motamga aylanadi. Xaloyiq uni o’lgan hisoblab, tezda bir uyga keltirdilar. Barcha to’planishib, kuyov boshiga yig’ildilar. Kelin bilan kech kimning ishi bo’lmadi.

Bechora kelin qanoti singan tovusdek majolsiz edi. Ko’ngli yuz xil shubhalar bilan band bo’lib, ming xil o’ylarga bordi. O’zini o’ldirish uchun bir zaharli pichoq yashirib qo’ygan edi. Agar dushman o’z maqsadiga erishgudek bo’lsa, chor – nochor o’zini o’ldirishga qasd qilgan edi. Yot

³³Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2006.. 165 – bet.

kishidan qutulib, o'z yoriga vafodor bo'lib olamdan o'tishni o'ylagan edi. O'ziga urmoqchi bo'lgan zaharli pichoq yovning badaniga kor qilgan edi go'yo.

Navoiy bu holatlarni quyidagicha izohlaydi:

Ko'rguzdi bu tun falak nifoqi,
Ko'p amri g'arib ittifoqi.

Bu erdi biriki, ul iki fard
Kim, jonlari erdi dardparvard.

Bahri falak urdi ul sifat mavj
Kim, ayladi ikki fardni zavj.

Har birni yana birov bila juft,
Yetkurmadi hech dur aro suft.

Bir buki bu nav' iki kudurat,
Bir kecha ichinda tutti surat.

Ham ul kecha ayrilishtilar bot,
O'z bo'lmayin o'ldilar yana yot³⁴.

Alqissa, kuyov holdan ketib, kuchsizlik uning tanini poymol qilganda, o'sha kecha butun el uning boshiga to'plangan edilar. Layli u balodan ozod bo'lib, g'amgin ko'ngli xursand bo'ldi. O'zining oldida hech kim yo'qligini va barchaning kuyov boshiga to'planganini ko'rib, uydan tashqariga chiqdi. Uy yonidagi baland qum bo'ylab chiqib ketdi. Bir lahza tinmay, orom

³⁴ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2006. 165 – bet.

olmasdan, sekin – sekin qadam tashlar edi. Har nafasda Xudoga shukr qilib, ixtiyorsiz yurib ketdi.

Ibni Salom o'ziga kelgach, sharmandalarcha o'z uyiga jo'naydi va tuzalgach qaytishini aytadi. Shunday qilib, Layli ham, Majnun ham bir – biriga sodiqligicha pok qolishadi.

Navoiy bu to'y orqali ikki sevishgan qalblarning bir – biriga qanchalik sodiq ekanliklarini ko'rsatish bilan bir qatorda, o'z zamonasidagi avj olib borgan ichkilikbozlik, qiz bolani ko'ngliga qaramasdan, roziligini olmasdan, pul, boylik uchun uzatish kabi kamchiliklarni ham ochib beradi. Shu bilan birga, kelin bilan bilan kuyovning bezatilishi lavhalarini milliy chizgilar asosida chiroyli tasvirlab beradi.

IKKINCHI BOB.
XX ASR ADABIYOTIDA TO'Y MAROSIMI TASVIRI VA
UNING AHAMIYATI

***2.1. Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanidagi
to'y marosimi tahlili.***

O'tgan asr boshida yashab ijod etgan o'zbek adabiyotida, jumladan, o'zbek nasrida o'ziga xos ijodiy prinsiplarga, nozik didga ega bo'lgan yozuvchi Abdulla Qodiriy milliy badiiy tafakkur taraqqiyotida o'zining bir qator asarlari bilan o'chmas iz qoldirdi. Abdulla Qodiriy yaratgan asarlar haqida adabiyotshunoslarimiz tomonidan katta – kichik tadqiqotlar olib borilgan. Biroq adib ijodi o'ziga xosligi, qamrovi kengligi, serqirraligi bilan hali ko'pgina ilmiy ishlar, tadqiqotlar uchun asos bo'la oladi.

O'zbek adabiyotida “O'tkan kunlar”romani milliy ruh juda bo'rtiq aks etganligi bilan ajralib turadi. O'zbek xalqining go'zal odobi, cheksiz andishasi, katta – kichik, uzoq – yaqin kishilarning o'zaro muomala – munosabatlaridagi yuksak madaniyat, millat turmush yo'sinidagi o'xshashi yo'q tartiblar yozuvchining san'atkorligi tufayli jonli badiiy lavhalarda shu qadar mahorat bilan chizilganki, o'quvchi bu xildagi tirikchilik yo'rig'iga ega xalq va uning yetuk vakillarini yaxshi ko'rib qoladi. Romanda milliylik ifodasi – milliy urf - odatlar aks etgan manzaralar bor bo'yi bilan namoyon bo'lgan.

Romanni o'qigan kitobxon unda 2 ta to'y tasvirini uchratishi mumkin. Birinchisi, Otabek va Kumushning Marg'ilonda bo'lib o'tgan to'yi tasviri bo'lsa, ikkinchisi Otabek bilan Zaynabning Toshkentda bo'lib o'tgan to'yidir. Marg'ilon hududiga xos an'analar bilan bayon etilgan birinchi to'y tasviri to'liq keltirilgan. Bu tasvir romanning I bo'lim 10 – 11 – boblaridan, ya'ni “To'y, qizlar majlisi” va “Kutilmagan baxt” deb nomlanuvchi boblaridan joy olgan.

Ikkinchi to'y, ya'ni Toshkentda bo'lib o'tgan Otabek va Zaynablarning to'yi haqida esa yozuvchi deyarli to'xtalmagan. Biz bu to'yning bo'lib o'tgani haqida II bo'limning "Qovoq devonaning belbog'i" deb nomlanuvchi 3 – bobini o'qib bilishimiz mumkin. To'yning juda dabdabali va chiroyli o'tganligi Qovoq devona tilidan aytiladi.

Asardagi Otabek va Kumush to'yining muallif tomonidan nihoyatda nafis va jozibali tasvirlanganligini dastlabki jumalardayoq kuzatishimiz mumkin:

*"Qutidorning tashqarisig'a er mehmonlar, ichkarisiga xotin mehmonlar to'lg'anlar, ular quyuq, suyuq oshlar, holva, nisholdalar bilan izzatlanadirlar. Tashqarida bir qo'sha sozandalar dutor, tanbur, g'ijjak, rubob, nay va amsoli sozlar bilan dunyoga jon suvi sepib shaharning mashhur hofizlari ashula aytadirlar. To'y juda ham ruhlik"*³⁵.

Yozuvchining "To'y juda ham ruhlik" degan jumlasini, bizningcha, juda mahorat bilan aytilgan. Ushbu jumlaning zamirida xalqimizga xos marosim juda chiroyli tasvirlangan. O'zbek to'ylarida erkaklar va ayollar alohida ziyofatda o'tirishlari, ularga suyuq va quyuq oshlar, holva, nisholdalar tortilishi va, albatta, sozanda va hofizlarning "dunyoga jon suvi sepib" kuylashlarida millatimizga xos qadriyatlarning asrlar osha qadrlanib kelinayotganini kuzatamiz. Xalqimizda "Kerilganning uyiga bor, maqtanganning to'yiga bor" degan maqol bor. Mirzakarim Qutidor o'z davrining martabali, obro' – e'tiborga ega kishisi bo'lsa – da, o'quvchi uning to'yida ortiqcha dabdaba va hashamni kuzatmaydi.

Qodiriy to'yning ichkari hovli, ya'ni xotinlar bo'limini eng kichik elementlarigacha e'tibor berib tasvirlaydi. Bunda bir ayolning bolasini ovutayotganini o'qiganda o'zbek xalqining bolajonligi, ayollarning "qum –

³⁵ Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2007. 48 – бет.

tuproqdek ko'p"ligi fonida millatimizning bir – biriga mehr – oqibatligi, shuningdek, xursandchilikni baham ko'rishi kabi aniq xislatlarini namoyon bo'lganligini tasavvur etamiz.

Shu o'rinda muallif Kumushning onasi qizini uzatayotganidan ko'ngli og'rinayotganligini, ichiga chiroq yoqsa ham yorishmaydigan bir holatda ekanligini tasvirlaydi. Axir necha yillar oq yuvib, oq tarab katta qilgan qizi bugun begona dargohga kelin bo'lib ketmoqda. Onai zor uchun bu kun ham quvonchli, ham qayg'uli va og'ir kun bo'ladi:

“Oftob oyim qayg'uliroq, tusi bir oz siniqqansumon... mehmon kutib charchag'anidanmi, nimadan bo'lsa ham juda kalavlagan, ba'zan qiladirg'an ishidan ham yanglishib ketkani, masalan, uyga kirmakchi bo'lib tavanxonaga kirib qolg'ani ko'riladir. To'yga kelgan xotinlarning “To'ylar muborak, kuyav o'g'ul muborak!” deb so'rashlarig'a ham ishonchsiz bir ohangda “Qutlug' bo'lsin”, deydir”³⁶.

Kumushbibi tog'asining hovlisida bo'layotgan qizlar majlisi ham alohida e'tibor bilan kichik detallarigacha tasvirlangan. Ayniqsa bazmga kelgan qizlar o'zgacha mehr bilan tasvirlangan:

“Bu uyga o'ttiz-qirq chamalik qizlar yig'ilg'anlar, yig'ilishdan maqsad: qizlar o'zlarining eng latif, eng go'zal bir azolarini bu kun xotinlik, olamiga uzatmoqchidirlar . Bu uzatish majlisini jonlik, ruhlik o'tkazmak uchun barcha qizlar o'zlarining eng asil, eng nafis kiyimlarini kiyib, favqullotda yasanib, xusn olamini yana bir qat, yana bir qayta bejabdirlar. Agar bu uyga kirib, bu majlis azolarini bir martaba ko'zdan kechirsangiz, hozirdanoq aytib qo'yish mumkinki, albatta esingiz chiqib ketar:

³⁶ Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2007. 49 – бет.

Bu gulmi, ko'hlik? Yo'q narigisi! Undan ko'ra bunisi! Barisidan ham o'ttasi!.. Ana shunday qilib esdan ham ajrarsiz, gul tanlashda bir qarorg'a kelalmay el ichida kulgiga ham qolursiz, rasvo ham bo'lursiz”³⁷.

Ushbu majlis ishtirokchilari bugun qizlik olamidan xotinlik olamiga o'tayotgan Kumushni so'nggi bor qizlarcha beg'uborlik bilan o'yin-kulgilar qilib, kuzatmoqdalar. Qodiriy qizlar majlisini tasvirlar ekan, bunda o'zbek qizlarining go'zalligi zahirida ularning hayosi, ibosi, sho'xligi, shaddodligi, qaqajonligi yotishini ta'kidlamogchiday bo'ladi.

Qizlar majlisi tugagach, yangalar kelin Kumushbibini olib ketadilar. Abdulla Qodiriy o'zbek qizlarining ibo-yu hayosini Kumushbibi obraziga jamlagani, ayniqsa, vakolat olish lavhalarida bo'rtib ko'rinadi:

“Kumushbibidan vakolat olish ham juda qiyin bo'ldi. Domlani : Sizkim Kumushbibi Mirzakarim qizi, o'zingizni toshkandlik, musulmon Otabek Yusufbek hoji o'g'liga bag'ishlamoq vakolatini amakingiz Muhammadrahim Yo'ldosh o'g'liga topshirdingizmi? Degan so'rog'i olti, yetti qaytarilg'andan keyin, shunda ham yangalar qistog'i ostida arang uning rizolig'i olindi”³⁸.

To'y ahli kechki soat beshlarda kuyovni to'rt ko'z bilan kutadi. Kuyov uchun palovlar, turli noz – ne'matlar, quyuq – suyuq oshlar hozirlanadi. Besh yarimlarga yaqin 20 – 30 yosh yigitlar hamrohligida kuyov ham kirib keladi. Shu o'rinda Qodiriy kuyov bo'lmish Otabekning portretini to'liq tasvirlab beradi:

“...boshida simobi shohi salla, ustidan qora movut sirilgan sovsar po'stin, ichida o'zining Shamayda tiktirgani osmoni rang movut kamzul, movut shim: oyog'ida qalapoy afzali, belida Kumushbibining usta qo'li bilan

³⁷ Ўша китоб. 50 – 51 – бетлар.

³⁸ Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2007. 55 – бет.

tikilgan shohi qiyig'... Yuzlar qizil, og'iz irpaygan, ko'zlar o'ynab allakimni qidiradir"³⁹.

Yoriga yetishishga shoshilayotgan oshiq quvonchi ichiga sig'maydi, odamlar orasidan yorini qidirmoqda. Kuyovni bir ko'rish niyatida kutib o'tirgan qarindosh – urug'lar esa uni ko'rgach "*Tuzuk – tuzuk, kuyavlikka arzigundek, chakki chakkiga tushmapti, olma-yu anor*"⁴⁰ deyishadi va kelin bilan kuyovning bir– biriga munosib tushganliklarini maqtab duo qilishadi. Tomdan kuyovni tomosha qilib o'tirgan xotinlar ham unga havas bilan qarashadi. Qutidor ham yer ostidan kuyoviga qarab, bildirmay jilmayib qo'yadi.

Kuyov tomonidan kelganlar quyuq – suyuq oshlar bilan mehmon qilingandan so'ng qiz va yigitning vakillari o'zaro mahr masalasini hal qiladilar. Milliy urflarimizdan yana biri bo'lgan qizga kuyov tomonidan qalin puli berish odatini ham yozuvchi romanda aks ettiradi. Mahr, ya'ni qalin puli nikoh vaqtida kuyov tomonidan kelinga ajratiladigan doimiy va shaxsiy mulk hisoblanadi. Mahr tortishuvida kelinning vakili ko'proq narsa undirishga harakat qilsa, kuyovning vakili kuyov foydasini ko'zlab, kamroq narsa berdirishga harakat qiladi. Ko'p tortishishlardan keyin Kumushbibini uchun quyidagilar beriladigan bo'ldi:

*"... uch yuz oltin pul, mundan keyin olib berish va'dasi bilan Marg'ilondan o'radek bir havli, sog'ish uchun sigir, asbobi ro'zgor..."*⁴¹.

Qalin puliga Otabekning ham roziligi olingach domla xutba boshlaydi. Forscha o'qilgan hamd, salovot va boshqalardan keyin xutba eng nozik va qiziqarli joyiga keladi. Kuyov va kelinning nikohga roziligi olinishi kerak bo'ladi. Domla, dastavval, kuyovdan so'raydi:

³⁹Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2007. 55 – бет.

⁴⁰ Ўша китоб. 55 – бет.

⁴¹ Ўша китоб. 56 – бет.

“Sizkim Otabek Yusufbek hoji o’g’li Kumushbibi Mirzakarim qizini o’zingizga shar’iy xotinliqqa qabul qilasizmi? – fors tilida so’ralg’an bu savol Otabekning kulgusini qistadi”⁴².

Otabek birinchi so’rashdayoq rozilik bermoqchi bo’ladi-yu, yana uyalib jim turadi. Odatda kuyovlar uchinchi so’rashda javob berishi odat bo’lsa ham Otabek ortiqcha takallufga joy qoldirmay ikkinchi so’rashdayoq rozilik beradi. Chunki uchinchi martada “Endi olmas ekansiz Kumushbibini...” deyishadigandek tuyuladi unga.

Nikoh ishi saranjom bo’lgandan keyin hamma qo’l ochib, kelin bilan kuyov haqiga duo o’qiladi. Shundan keyin nikoh majlisi yopiladi.

Yigitlar kuyovni mehmonxonaga boshlab kiradilar. Endi to’yning ziyofat qismi boshlanadi. Bir – ikki soat davom etgan “*tomoq majlisi*” Otabekning xayolida bir necha yillardek tuyuladi. Nihoyat, yangalar kelib kuyovni so’ragach fotiha o’qilib dasturxon yig’ishtiriladi va barcha ikki yoshga muhabbatli umr tilashadi.

Hasanali Otabekni otalik mehri bilan quchoqlab tabriklaydi va yangalar kutib turgan tomonga kuzatadi. Otabek hayajon ichida bo’lib o’tayotgan ishlarning tushi yoki o’ngi ekanligiga ishonmaydi.

Qutidor ichkari hovlisining kiraverishidan boshlab to Kumushbibining uyigacha xotinlar-u bolalar qator turib kuyovni kutib olishadi. Otabek asta – asta qadamlar bilan, hayajondan ikki yuzi lov – lov yonib yurib keladi. Uyatdan qochishga joy topolmay, boshini egib boradi.

Ichkarida Kumushbibi tinmay yig’laydi. Yangasi qanchalar ovutsa ham gapiga quloq solmay yig’laydi. Tashqaridan “kuyov, kuyov” so’zlari eshitilgach Kumushbibi battar yig’lab, ranglari ham o’zgarib ketadi. Yangasi Kumushni shu holicha tashlab eshikka, kuyovga peshvoz chiqadi.

⁴² Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2007. 56 – бет.

Otabekning hayajonlanganidan yuragi tez – tez ura boshlaydi. Ichkariga kirganidan keyin uy to'rida yonini Otabekga berib, ro'molini tugib o'tirgan Kumushbibini ko'radi.

Qodiriy ikki yoshning visol onlarini shunchalar nafis va samimiy bayon etadiki, uni o'qigan kitobxon beixtiyor ularga katta havas bilan shu misralarni qayta – qayta o'qiydi:

“Ro'ymol tugish bilan mashg'ul latif qo'llarni chet qo'l kelib siqdi:

- *Jonim!*

Kumushbibi begona qo'ldan seskandi va qo'llarini qutqazmoqqa tirishib:

- *Ushlamangiz, - dedi ham siquvchi qo'ldan qutilish uchun orqag'a tislandi.*

Titrag'an va qovjirag'an bir tovushda:

- *Nega qochasiz? Nega qaramaysiz? – dedi bek*”⁴³.

Kumushbibi shu paytgacha kuyovni dushmani deb bilgan va qarashni ham xohlamagan edi. Majburiyat yuzasidan yov qarash bilan sekingina, yer ostidan Otabekga qaraydi. Qaraydi-yu, shu qarashda qotib qoladi. Beixtiyor Otabek tomon yurib:

*“ – Siz o'shami?”*⁴⁴, deya esankiragan va hayajonlangan tovushda so'raydi.

*“ – Men o'sha”*⁴⁵, deb javob beradi Otabek.

Kumushbibi og'ir tin olib Otabekning yuziga uzoq tikiladi-da:

*“ – Kutilmagan bir baxt”*⁴⁶, deydi va quvonch bilan kuladi. Bu kulgi hovligacha eshtiladi. Shundan keyin qiya ichiq turgan eshik ham qattiq

⁴³ Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2007. 58 – бет.

⁴⁴ Ўша китоб. 58 – бет.

⁴⁵ Ўша китоб. 58 – бет.

⁴⁶ Ўша китоб. 58 – бет.

yopiladi va ikki sevimli qalblar tanho qoldiriladi. Shu bilan to'y ham tarqaydi.

Xullas, "O'tkan kunlar" romanidagi to'y-marosimini tasvirlash bilan Qodiriy millatimizning o'ziga xos fazilatlarini yoritib bergan. Bu hol romanning ta'sir kuchini oshiradi, tarixiy vaziyat, ijtimoiy muhit va o'sha davr odamlarini konkret tasavvur qilish imkonini beradi.

2.2. *Tog'ay Murod ijodida to'y marosimi tasviri.*

Har qanday san'at asarining hayotiyligini, xalqchilligini, milliylik va barhayotligini ta'minlashda ona zamin, u yerda yashovchi xalq hayoti va uning boy madaniy va ma'naviy merosining o'rni beqiyosdir. Ijodkor o'ziga xos milliy ruhda asar yaratish uchun ana shu xalq turmushini, urf – odatlari va an'analarini, ruhiyatini, tafakkur tarzini hamda ta'sirlanish xususiyatlarini juda yaxshi bilishi lozim. Shu boisdan san'at asarida milliy xususiyatlarning aks ettirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tog'ay Murod o'zining sara qissalari bilan o'zbek adabiyotini boyitdi. Bu asarlar adabiyotimizda o'z tili, o'z yo'li, o'z uslubini yaratgan katta iste'dodli yozuvchi bor ekanligidan dalolat berib turadi. Tog'ay Murod asarlaridan Surxondaryo havosi ufurib turadi. Uning barcha asarlarining bosh qahramonlari Surxandaryolik polvonlar, chorvador-u dehqonlar, chavandozlar... Adib asarlarida tug'ilib o'sgan zaminining o'ziga xos milliy urf – odatlarini lirik pafosda ko'rsatib bergan.

Tog'ay Murod qissalari adabiyotimizga Surxon vodiysining o'ziga xos nafasini olib kirdi, mehnatsevar, kamtar va tanti chorvadorlar, bog'bonlarga nisbatan dilimizda samimiy mehr uyg'otdi. "Ot kishnagan oqshom" qissasi "Alpomish" dostoni an'analarini eslatadigan xalqchil ruh bilan sug'orilgan. Tog'ay Murodning o'zi ham Alpomish va Barchinlarni bergan go'zal vodiylar, bepoyon yaylovlarda o'sganligi uning so'z boyliklaridan, yozuvchilik uslubi va o'ziga xos ovozidan sezilib turadi. Nasriy asarga she'riy jarang va ko'tarinki ruh bag'ishlay olish qobiliyati adibning qalamiga xos eng yaxshi fazilatlardandir.

Yozuvchining "Yulduzlar mangu yonadi" nomli qissasi Bo'ri polvon, Tilovberdi polvon, Abil polvon kabi mard va jasur o'zbek polvonlari haqidadir. Qissa voqealari to'yxonada bo'lib o'tadi. Asar jarchining Xo'jasoat ko'chalari bo'ylab to'yga odamlarni chaqirishi bilan boshlanadi:

“ - Odamlar-u odamlar, tog’da bitgan bodomlar, eshitmadim demanglar! Bugun ha-a-amma Zulfiqor polvonnikiga sunnat to’yiga, he-e-e-ey! Chu, jonivor!”⁴⁷

Xalqimizning o’ziga xos udumlarini yaxshi bilgan adib to’yga odamlarni aytish tasvirini nihoyatda chiroyli ko’rsatib beradi. Avval jarchi barchani aytib chiqadi, undan keyin to’y bekasi uyma – uy kezib xonadon bekalarini to’yga chaqirdi. Zulfiqor polvon ham ot minib el – yurtni o’z nomidan yana bir bor aytib chiqadi. Birinchi qism oxirida yozuvchi bu holatga izoh berishni ham yodidan chiqarmaydi:

“El – yurt ko’ngli nozik-da.

To’y bekasi aytgani boshqa, to’y xo’jasi aytgan boshqa”⁴⁸.

O’zbeklarga xos o’zaro hurmat – e’tibor to’y boshlovchining to’yga aytishidan boshlanadi. “Hurmat qilsang, hurmat ko’rasan” degan xalq maqoli bejiz aytilmagan ekan. Hurmat – e’tibor bilan to’yga aytilgan xalq “to’ychi”ning hurmatini joyiga qo’yib, “to’yga to’yona bilan” tashrif buyuradi.

Xalqimizning jipsligi, ahilligi, tantiligi kabi xislatlar ayni to’yga borishida ham o’z aksini topgan. O’zbeklar to’yga quruq qo’l bilan shumshayib borishmaydi. Tush vaqti ayollar bo’g’irsoq, qatlama, shirguruch ko’tarib, erkaklar esa qo’y yetaklab to’yxonaga kirib kela boshlaydilar.

To’y tasvirining bayonida Nabi oqsoqol yonboshlab olib, to’yxonadagi voqealardan ko’z – quloq bo’lib turadi. Chunki o’zbek to’ylarini oqsoqollar boshqarib turadilar. To’y maslahatidan tortib barcha ikir – chikirlarigacha hamma– hammasi oqsoqolning nazoratida bo’ladi, ya’ni kelganni kutish, ketganni izzat – ikrom bilan kuzatish, olib kelingan hadyalarning hisob – kitobini olish kabilarning barchasini Nabi oqsoqol boshqaradi. Chunki

⁴⁷ Тоғай Мурод. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2008. 12 – бет.

⁴⁸ Ўша китоб. 12 – бет.

oqsoqol ko'pni ko'rgan, tajribali, ziyrak kishilardan bo'ladi-da. Dono xalqimiz "Qari bilganni pari bilmas" deya bejizga aytilmagan.

Tog'ay Murod shu o'rinda xalqimizda qadimdan urf bo'lgan sochqi sochish odatini ham tasvirlaydi. Axir o'zbek to'ylari sochqisiz bo'lmaydi-da:

"To'ylovchi ayollar sochqilar sochdi: yong'oq, pista, mayiz..."

Bolalar qo'llarini cho'zib – cho'zib sapchidi. Sochqilarni ilib – ilib oldi. Yerga tushganlarini talashib – tortishib qo'ynilariga soldi.

*Ikkita bola yumalab borayotgan yong'oqni quvib ketdi"*⁴⁹.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, to'y sochqisiz bo'lmaydi. To'y qiluvchi yaxshi niyatlar bilan to'y sababchilarining : beshik to'yida go'dakning, xatna to'yida o'g'il bolaning, nikoh to'yida esa kelin bilan kuyovning rizq-u nasibasi butun bo'lsin deb sochqi sochadilar. To'yga kelganlar "Bizlarni ham shunday kunlarga yetkazsin", deb niyat qilib sochqilarni talashib oladilar. Asosan, sochqilarni yosh bolalar teradilar.

Bolalar yong'oq, oshiq, shumshak, quloqcho'zma kabi o'yinlarni o'ynab to'yxona bo'ylab kezishadi. Bu o'rinda yozuvchi xalqimizga xos bo'lgan bolajonlik xususiyatini ko'rsatib beradi. To'y bolalarning sho'x – shodon kulgusi bilan qiziq o'tadi.

To'yning boshqa mayda – chuydalarini Tog'ay Murod quyidagicha tasvirlaydi:

"Xolboy surnaychi ikkita doirachi bilan mumtoz musiqalar tarona etdi.

To'yxonada olti doshqozon qator osildi.

Xizmatkorlar qur bo'lib o'tirib sabzi to'g'radi.

Dosho'choqlardan samoga qop – qora tutun o'rladi.

*Doshqozonlardan zig'ir moyga qovurilayotgan go'sht hidi keldi"*⁵⁰.

⁴⁹ Тоғай Мурод. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2008. 12 – 13 - бетлар.

⁵⁰ Ўша китоб. 13 - бет.

Nabi oqsoqol erkaklarni milliy o'yinlarimizda bo'lgan ko'pkariga chaqiradi. O'yinga uliq olib kelinadi. Ko'pkari tugagandan keyin barchaga osh tortildi.

Kechqurungi ayollarning o'tirishlarida ham bolalar qatnashadi. Yozuvchi bolalarning o'yin – kulgularini tasvirlashga keng o'rin beradi. Milliy o'yinlarimizdan biri bo'lgan yashinmachoq o'yinini quyidagicha tasvirlaydi:

“Bolalar davra tevaragida quvalashib o'ynadi.

Besh – olti bola jam bo'ldi. Bir uy ichida yerni aylana qilib chizdi. Aylanani gir deb atadi.

Bolalar bir sonni belgilab oldi. Birovi bolalarni uch aylantirib sanadi. Mo'ljalidagi songa tushmish bola girda qoldi.

U gir ichida engashdi. Ko'zlarini qo'llari bilan yashirib turdi.

Bolalar har tarafga sochilib yashirindi.

Girda qolgani ularni izladi. Girdan-da ogoh bo'ldi.

Kimda – kim uning ko'zini shamg'alat qilib, epchillik bilan girga chopib kirsam, shu g'olib sanaladi.

U ayollar orasida bir bola mo'ralab turganini sezib qoldi. Shu bolani davra aylantirib quvdi.

Bola girga qarab qochib, qo'lga tushdi.

Bu orada boshqa bolalar girga to'plandi.

Endi qo'lga tushgan bola girda qoldi. Bolalarni izladi.

Bu, yashinmachoq o'yini bo'ldi”⁵¹.

Ayollar davra qurib, changqovuz chala boshlaydilar. Davrada ikki go'zal qizlar changqovuz nag'malariga hamohang “eshilib - eshilib”, “to'lg'anib – to'lg'anib” o'ynaydilar. Ayollar esa chapak chaladilar.

⁵¹ Тоғай Мурод. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2008. 13 – 14 - бетлар.

Shu o'rinda muallif to'y marosimining sinov maydoni ekanligiga ham e'tiborni qaratadi. Chunki to'y ko'pniki. Unda kishilarning qandayligini bilsa bo'ladi. Shuning uchun ham bo'ydoq yigitlar bo'yi yetgan qizlarni sirtidan kuzatib, o'zlariga qayliq qidiradilar. Ishda ham, o'yinda ham o'zini ko'rsata olgan go'zallarni ko'z ostlariga oldilar.

Tog'ay Murod to'y tasvirida milliy an'analarni ko'rsatib berishga keng o'rin bergan. Jumladan, Surxandaryocha to'y tasvirida bir qator milliy o'yinlar to'liq bayon etilgan. Yuqorida biz yashinmachoq o'yinining tasvirini kuzatgan bo'lsak, endi bolalarning oqsuyak o'yinini o'ynayotganliklari aytiladi va o'yin qonun – qoidalarini kitobxonga tushuntirish uchun oltinchi bob to'liq bolalarning o'yinlariga bag'ishlanadi:

“...bolalar ikki taraf bo'ldi.

Bir taraf teskari o'girilib, ko'zlarini chirt yumib turdi.

Ikkinchi tarafdan qulochi kattaroq bola bir qatichcha oppoq mol suyagini qulochkashlab otib yubordi.

Shundan keyin raqiblar o'girildi. Har tarafga yoyildi. Suyak izlab ketdi.

Suyak otgan bolalar qatorlashib o'tirdi. Raqiblarini qaradi.

Bolalar suyakni izlab – izlab, oxiri topib keldi.

Bordi-yu, topolmasa, suyak otgan bolalarning o'zlari topib keladi. Tag'in suyak otadi. Suyak ota berib – suyak ota berib, raqiblarini sarson qiladi.

Endi suyak otish gali uni topib kelganlarda bo'ldi.

Bu, oqsuyak o'yini bo'ldi”⁵².

Yettinchi bobga kelib endi muallif erkaklarning o'tirishlarini tasvirlashni boshlaydi. Bizga ma'lumki, o'zbekona urf – odatlarga ko'ra ayollar va erkaklar alohida – alohida davra qurib o'tirishadi. Ayni mana shui

⁵²Тоғай Мурод. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2008. 14 – 15 - бетлар.

bilgan holda, Tog'ay Murod ham erkaklarning to'yxona yonidagi qo'shni uyda o'tirishganini qayd etadi. erkaklar davrasida olish bo'ladi. Unda bir-biridan baquvvat polvonlar olishadi. Polvonlarning bemalol olishishlari uchun barcha sharoitlar qilinadi:

“Polvonlar oyog'iga zax o'tmasin uchun davraga somon sepildi.

Davra chetida yonib bo'lmish olov cho'g'i yashnadi.

Polvonlar sovuq qotsa, ana shu cho'qqa isindi”⁵³.

Barcha tomoshabinlar o'z joylarini egalladilar. Joysiz qolganlar tik turdilar, bolalar daraxt shoxlariga chiqib olib kurashni tomosha qila boshladilar. Kolxoz raisi bakovul bo'lib, uning oldiga barcha sovrinlar keltirib qo'yildi.

Hurmat yuzasidan olishni qariyalar boshlab berishdi, Bo'ri polvon kurashga raislik qiladigan bo'ldi. An'anaga muvofiq avval yosh bolalar, keyin maktab bolalari, undan keyin o'smirlar olisha boshladilar. Bir polvon yiqilsa, uning ori uchun jo'rasi, yor – birodari chiqdi. Maqsad – kindik qoni tomgan yer uchun olishish. Axir, *“Vatan – kindik qon tommish yerdan boshlanadi!”*. Yigitlarning yoshligidan qon – joniga bu or – nomus singib ketgan. O'zbek o'g'lonlarining mard va jasurligi, do'stiga, Vataniga sodiqligi, halolligi kabi xislatlarini yozuvchi mana shu kurash tasviri orqali ochib beradi. Davraga chiqqan polvon haqqoniy o'ynashi kerak. G'irromlarni xalq tan olmaydi.

Tog'ay Murodning milliy urf – odatlarni chuqur bilishini “Ot kishnagan oqshom” qissasi misolida ham kuzatishimiz mumkin. asar bosh qahramon – Ziyodulla kal tilidan hikoya qilinib, u o'zining bolalik chog'laridan boshlab boshidan kechganlarni aytib beradi.

Qissa voqealari rivoji davomida bir nechta to'y marosimlari bo'lib o'tadi. To'y marosimlari haqida qisqa – qisqa tavsif beriladi. Muallifning

⁵³Тоғай Мурод. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2008. 15 - бет.

asosiy maqsadi to'yda uyushtiriladigan xalq o'yinlaridan biri bo'lmish ko'pkaridagi chavandozlarning mahoratini ko'rsatib berish bo'ladi.

Dastlabki to'y Ziyodulla kal bilan Momosuluvning nikoh to'yi bo'ladi. Ziyodulla to'y haqida quyidagilarni aytadi:

*“To'y – tomosha bo'ldi. U mastona – mastona qadam qo'yib, chimildiqqa kelin bo'lib kirdi. Men mardona – mardona odim qo'yib, kuyov bo'lib kirdim”*⁵⁴.

Keyingi to'y qo'shni qishloq – Obshir qishlog'ida bo'lib o'tadi. Ziyodulla kalga to'yxat kelgach, Tarlonni egarlab yo'l harakatiga tushadi. *“Surnay navosi chiqayotgan, osmonga quyuq tutun o'rlayotgan to'yxona”*⁵⁵ tomon yigirma otliq bo'lib borishadi. Mehmonlarga Turdi podachinikidan joy tegadi. To'yxonadan mehmonlarning ulushi keladi, uy bekasi qozon osib, dasturxon yoyadi. Ertasi kuni ko'pkari bo'ladi. Ko'pkarida Ziyodulla chavandoz serka yutadi-yu, hamrohlari esa quruq qaytishadi. Xalqdan uyalib qorong'i tushganda to'ydан qaytishadi. Ziyodulla chavandoz yutug'i bilan oldinda yurib ketadi.

Navbatdagi to'y Boysunda bo'lib o'tadi. Ziyodulla chavandoz bu yerliklar haqida o'z fikrlarini kitobxon bilan bo'lishadi:

*“Birodarlar, boysunliklar qitmir el, baxil el, ichiqora el! Birovga bir nima qilmaydi! O'zlari bo'lolmaydi, bo'lganni ko'rolmaydi! Bizning omadimizni kamsitadi! Bizning muvaffaqiyatimizni yerga uradi! Parokandaligimizni ko'rib quvonadi! Yayrab kuladi, miriqib kuladi! Voy bechora-e, voy bechora-e, deydi! Nachora, birodarlar, nachora, sut bilan kirgan, jon bilan chiqadi!”*⁵⁶.

Bu to'yda ham ko'pkari uyushtirilib, yozuvchi ko'proq o'yin jarayoni haqida ma'lumot beradi. Ko'pkarida mezbon tomon mehmonlarni g'irromlik

⁵⁴ Тоғай Мурод. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2008. 105 - бет.

⁵⁵ Ўша китоб. 115 - бет.

⁵⁶ Ўша китоб. 124 - бет.

bilan yengadi, hatto chavandozlarni otdan yiqitadi ham. Boysunliklarning xatosini ko'rib turgan bakovul ham indamay yelka qisib turadi. Oxiri qo'shni qishloqlardan kelganlarning toqati toq bo'lib, o'yindan chiqib ketadi. Buni ko'rib turgan mezbonlar esa:

“- *Yaxshi bo'ldi, bari ketayapti. Uloq endi o'zimizga qoladi*”⁵⁷, deya quvonadi. Bu jumla bilan yozuvchi mehmonning izzat –ikromini joyiga qo'yish ham bir san'at ekanligini, to'y mezbonlari bag'rikenglik va tantilik bilan tadbirlarini o'tkazishlari kerakligini kinoya bilan aytadi.

Tog'ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasida befarzand kishilarning dard–u iztiroblari umumlashtirilib, Oymomo va Qoplon obrazlariga singdirilgan bo'lib, ular befarzandliklari uchun xalq ichida yurishga, to'y-u ma'rakalarda qatnashishga iymnadilar. Chunki odamlar irim qilib ularni o'zlariga yaqinlashtirmaydilar. Qoplan bilan Oymomo umr bo'yi shu dardga davo izlaydilar, ba'zi odamlarning malolatlaridan azob tortadilar, bir qancha vaqt o'ksik va tili qisq bo'lib yuradilar.

Qissada boshqa asarlardan farqli tarzda nikoh to'yi dastlabki bosqichdan, ya'ni non sindirish marosimidan boshlab tasvirlanadi. Qoplon Oymomoga ko'ngil qo'ygach, uning uyiga sovchi yuboradi. Sovchilar bir necha marta kelishgandan keyin non sindiriladi va qalin puli kelishiladi. Shundan keyin taomilga muvofiq kuyov tomonidan fotiha to'y yuboriladi:

“*Fotiha to'yida qo'y, zig'ir moy, guruch, mayiz... bo'ldi*”⁵⁸.

Fotiha to'ydan so'ng kelinnikiga to'qqiz keldi. Unda ko'rpa – to'shak matolari bilan paxta kuyov tomonidan yuboriladi. Tog'ay Murod to'y bilan bog'liq barcha urf – odatlarni ayni mana shu lavhalarda juda aniq tasvirlaydi. Bundan biz yozuvchining naqadar xalqona udumlardan xabardorligini bilib olishimiz mumkin.

⁵⁷Тоғай Мурод. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2008. 127 - бет.

⁵⁸Ўша китоб. 222 - бет.

To'y bozor oqshomida o'tkaziladigan bo'ldi. Hamma uzoq – yaqin qarindoshlar aytib chiqildi. Kuyov xonadonida katta tayyorgarlik boshlab yuborildi:

“... necha – necha qo'ylar boshi ketdi.

Necha – necha ko'zalar bo'shab qoldi.

Sozlar, xonishlar havoda havolanib – havolanib turdi.

To'yxona to'la to'ylovchi bo'ldi”⁵⁹.

Ayollar kelin tomondan o'nta toboq ko'tarib kuyov xonadoniga kirib keldilar. Toboqlarning birida palov, birida qaynatilgan tuxum, birida qovurma go'sht, yana birida shirguruch va hohazolar bo'ladi. Barcha toboqlar o'rtaga qo'yiladi va to'yga kelgan mehmonlar ko'ngillari tusagan taomni olib yeyishdi. Bo'shagan toboqlar dasturxondan ko'tarilgach o'rtaga katta ro'mol yoyildi. Barcha to'ylovchilar atagan sovg'a – salomlarini ana shu ro'molga tashlashdi.

Kuyov jo'ralari hamrohligida kelin xonadoniga yo'l oldi. Kelin ichkari uyda dugonalari bilan o'tirar edi. Qizlar biri kelinning sochini bezatar, biri qoshlariga o'sma qo'yish bilan band bo'lishadi. Shu payt bir necha kishilar kelin turgan uyning dahliziga kelishadi. Domla kelindan vakil so'raydi:

“ – Sizkim Oymomo Abdiboy qizi, o'zingizni Qoplonboy Qurbonboy o'g'liga bag'ishlamoq vakolatini akangiz Esonqul Abdiboy o'g'liga topshirdingizmi?”⁶⁰.

Qizlar kelinga gapirmaslikni tayinladi. Kuyovjo'ralar qizlarga pul uzatdi. Kelin yana indamadi. Kigitlar pul uzatishadi. Domla qayta vakil so'raydi. Qizlar-u yigitlar bir – birlari bilan tortishib ketishadi. Kelinni dugonalari gapirmaslikni tayinlasa, kuyov jo'ralari rozilik berishga undashadi. Xayrulla domla uchinchi marta ham so'raganda kelin indamagach

⁵⁹Тоғай Мурод. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2008. 223 - бет.

⁶⁰ Ўша китоб. 224 - бет.

“uchdan keyin puch”, deya domla tashqariga yo’l oldi. Shu payt ichkaridan “ha” degan past ovoz eshitildi.

Boshqa uyda kelinning vakili bo’lmish akasi bilan kuyov domla huzurida o’tirishdi. Ayni shu o’rinda Tog’ay Murod uyatning naqadar o’zbek xalqiga xos bo’lgan xususiyat ekanligini ko’rsatib beruvchi bir lavhani keltiradi: *“Kuyov keldi. Qaynog’asi hurmati uchun yuziga belbog’ tutdi”*⁶¹.

Domla ikki tomonning roziligini olgandan keyin kuyovlik burchlarini aytadi. Milliy urf –odatlarimizga ko’ra nikoh o’qilayotgan paytda onasi kuyovning yelkasiga to’n yopadi va, kelin – kuyov hamisha birikib yursin, ajralmasin, degan maqsadda, to’n yelkasidan uchlari tugilmagan ip bilan igna o’tkazib turadi. Hamisha bug’doyday serob bo’lsin, bola – chaqali bo’lsin deya, kuyov boshi uzra bir hovuch bug’doy sepiladi.

Nikoh o’qilib bo’lgach kuyov jo’ralari bilan birga chimildiqqa yo’l oldi. Kelin ham poyandozni asta – asta bosib chimildikli xonaga kirib keldi. Peshonasida tillaqosh, quloqlarida zirak, ko’kraklarida zebigardon bilan kelin yanada ko’rkam bo’ladi. Kelin chimildiqqa yaqinlashganda kuyovning oyog’idan bosmoqchi bo’ladi. Ammo kuyov epchil chiqib, birinchi bosib oladi. Ota- bobolarimizdan yetib kelgan bu odamga ko’ra, yo kelin, yo kuyov birinchi bo’lib birining oyog’ini bossa, ana shu umr bo’yi ro’zg’orda o’ktam bo’lar ekan.

“It g’irillatar”, “kampir o’ldi”, “soch siypatar”, “qo’l ushlatar”, “oyna ko’rsatar” kabi udumlar o’tkaziladi va kelin – kuyov chimildiqda momolar bilan birga qoldiriladi.

Qissada Tog’ay Murod nikoh to’yi bilan bog’liq barcha milliy udumlarni katta mahorat bilan tasvirlab bergan. Boshqa qissalardagi to’y tasvirlaridan farqli o’laroq, bu qissadagi to’yda ko’pkari yoki kurash kabi o’yinlar tasviri keltirilmaydi.

⁶¹ Тоғай Мурод. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2008. 225 - бет.

Xullas, Tog'ay Murod qalamiga mansub asarlarda berilgan to'y tasvirlarini shartli ravishda "Surxondaryocha to'y" deb atadik. Chunki ularda Surxondaryo vohasiga xos to'y marosimi bilan bog'liq udumlar berilgan. Bu to'ylarning o'ziga xosligi unda ko'pkari, kurash kabi milliy o'yinlarning tashkil etilishidadir. Ushbu musobaqalarda albatta katta sovrinlar qo'yilib, sovrinlar to'y egasining himmatini ko'rsatib bergan. Aslini olganda, bunday musobaqalar ham qatnashuvchilarda, ham tomoshabinlarda or – nomus, yor – birodariga, Vataniga muhabbat, yurtga sadoqat, mardlik, halollik kabi ijobiy sifatlarni tarbiyalashi uchun tez – tez uyushtirilib turilgan.

X U L O S A

XX asr oxirlariga kelib o`zbek adabiyotiga bo`lgan e`tibor o`zgara boshladi. Unda urf - odatlar, rasm - rusumlarga qayta nazar tashlandi. Bu holat adabiyotshunoslikda ham milliy marosimlar tasviriga qayta yondashuvni yuzaga keltirdi.

To`y marosimlari o`zbek adabiyotida o`z o`rniga ega bo`lgan voqea - hodisa, urf - odat sanaladi. Bu marosimlarni xalq og`zaki ijodidan boshlab to bugungi kungacha yaratilayotgan asarlarda uchratish mumkin. O`zbek xalqining o`ziga xos urf - odatlaridan biri bo`lmish to`y marosimi hamisha shod-u xurramlik, yoshlik, go`zallik, kelajakka yaxshi umid va ezgu orzular ramzi sifatida o`tkaziladigan ajoyib bayramdir. G`oyat go`zal bo`lgan bu marosim barcha xildagi xalq san`ati, ashula, raqs bilan o`tkaziladi. U aslida asrlar osha sinovdan o`tgan, milliy asosda nishonlanadigan marosim hisoblansa-da, har bir davrda takomillashib, muttasil boyib kelgan. Bugungi kundagi to`y marosimlari bir necha asrlar oldingi marosimlardan ancha farq qiladi. Ayrim udumlar bugungacha saqlangan bo`lsa, ayrimlari umuman yo`qolib ketgan.

O`zbek to`ylari shaklan rang - barang bo`lib, ular bir - birlaridan o`tkazilish tarzi, ishtirokchilar tarkibi, vazifalari hamda ijro etiluvchi aytim va qo`shiqlari jihatidan keskin farqlanadi. Bular : beshik to`ylari, xatna (sunnat) va nikoh to`ylari. Biroq o`zbek adabiyotida ko`proq nikoh to`ylari marosimi o`z ifodasini topgan. Asarlarda to`y marosimi ikki xil usulda tasvirlanadi :

a) to`liq tasvirlash (“Alpomish”, “Oltin yoruq”, “Qo`rqut ota kitobi” dostonlari, “O`tkan kunlar” romani, “Yulduzlar mangu yonadi”, “Shaytanat” qissalari va b.)

b) qisman tasvirlash (“O’tkan kunlar”, “Farg’ona kelini” romanlari, “Ot kishnagan oqshom” qissasi va b.)

Ota – bobolarimizning o’tkir zehni mahsuli bo’lgan maqollarda ham to’y bilan bog’liq holatlarni kuzatishimiz mumkin. To’y marosimi bilan bog’liq bo’lgan maqollarda asosan to’yda bo’lgan voqea - hodisalardan chiqarilgan xulosalar o’z aksini topgan. Buni biz “Kerilganning uyiga bor, maqtangannning to’yiga bor”, “To’y xalq uchun”, “Har kim to’ygan to’yini maqtar”, “To’yga borsang to’yib bor, yomonliging qo’yib bor” kabi maqollarda uchratamiz.

Xalq og’zaki ijodi janrlaridan bo’lmish ertaklarning, asosan, oxirida qahramonlar murod – maqsadiga yetadi va ertak to’y – tomoshalar bilan yakunlanadi. Masalan, “Kenja botir”, “Qorasochxon”, “Guliqahqah”, “Erkenja”, “Oltin qiz”, “Ozodachehra”, “Sunbul bilan Gul” va boshqalar. Bu ertaklarda to’y marosimi ikki xil holatda bo’lib o’tadi. Birinchisi, yosh kelin – kuyovning oila qurishiga bag’ishlab o’tkazilgan nikoh to’yi bo’lsa, ikkinchisi esa bosh qahramonlarning ezgu niyatlariga yetganligi munosabati bilan o’tkaziladigan to’ydir. Har ikkala holatda ham qirq kecha, qirq kunduz to’y– tomosha bo’ladi va xalqqa osh beriladi.

Ertaklardagi to’y marosimlarining ko’pchiligi qisman tasvirlanadi, ya’ni to’y barcha ikir – chikirlarigacha bayon qilinmaydi. Faqatgina qirq kecha – kunduz xalqqa osh berilganligi aytiladi, xolos.

Qadimiyatning buyuk bir ehsoni bo’lgan, ajdodlardan avlodlarga og’zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorliklardan hisoblanadigan dostonlarning esa, voqealar rivojiga qarab, boshida ham, o’rtasida ham, oxirida ham to’y marosimi tasviri keltirilishi mumkin. Bunga misol qilib “Alpomish” dostonini keltirishimiz mumkin. “Alpomish” dostonida nikoh to’yi bilan bir qatorda xatna to’yi haqida ham ma’lumot beriladi. Jami asarda to’rtta to’y tasviri o’z ifodasini topgan. Birinchi to’y Boybo’ri bilan

Boysari ishtirok etgan xatna to'y tasviri hisoblanadi. Unda aka – ukalar farzandsizliklari uchun xalq tomonidan qattiq kamsitiladilar.

“Alpomish” dostonidagi ikkinchi to'y Boybo'ri bilan Boysarining farzand ko'rishiga bag'ishlanadi. Bu to'y ham, o'sha davr taomiliga ko'ra, qirq kecha – yu qirq kunduz bo'lib o'tadi. To'y tasviri orqali xalqning jipsligi, bir – biriga oqibatlilik, mehr – muhabbati ko'rsatilgan. Dono xalqimiz “To'yganga – to'y, to'ymaganga - tomosha” deganidek, to'yga kelgan xaloyiq doshqozonlarda damlangan oshlardan yeb, turli – tuman uyushtirilgan tomoshalarni ko'rib ketishadi.

Dostondagi uchinchi to'y Alpomish bilan Barchinning nikoh to'yi hisoblanadi. Marosim Chilbir cho'lida bo'lib o'tadi. Alpomish va Barchinoyning baxt sari ancha mashaqqatli yo'llari nihoyat nikoh to'yiga yetib keldi. Ushbu to'y juda jozibali, milliy chizgilar yorqin ifodalangan holda batafsil tasvirlangan.

To'yda to'qqiz tovoq marosimi ham tasvirlangan bo'lib, unda kuyov oldiga to'qqizta tovoqda taom kelin yangalari tomonidan beriladi. Shuningdek, “Qiz opqochdi” marosimi ham bo'lib o'tadi. Keyin xotinlar “Choch siypatar”, “Qo'l ushlatar” kabi rasm – rusumlarini qiladilar. Barcha rasmlarni o'tkazib bo'lgach yangalar ham chiqib ketadilar. Shunday qilib ikki yosh bir – biriga yetishadi.

“Oltin yoruq” eposida ham milliy nikoh marosimi tasvirini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, dostonning “Oltin qon”dagi to'y” deb nomlangan qismida uyg'urlarning Iskandar Zulqarnayn hujumiga qarshi kurashi voqealari tasvirlangan. Jang g'alaba bilan yakunlangani hamda qirda juda ko'p xalq qahramonlarining muqaddas qoni to'kilganligi sababli to'yni “oltin qon”da o'tkazishadi. To'y marosimi haqida asarda to'liq ma'lumot berilmaydi.

Bundan tashqari, turkiy xalqlar og'zaki ijodining nodir namunasi bo'lmish "Qo'rqut Ota kitobi" eposida ham to'y marosimi tasviri keltirilgan. Hozirgi ozarbayjon, turkman, turk xalqlarining ajdodlari bo'lmish O'rta asrlardagi o'g'uzlar hayoti, tarixi badiiy aks ettirilgan bu asarda O'rta Osiyoning boshqa turkiy xalqlari hayotiga mushtarak bo'lgan manzaralar, elementlar ham mavjud. Qadimdan turkiy xalqlarda to'y kuni oq, qizil, qora kabi turli ranglardagi o'tovlar yopilgan. Har bir o'tov o'z vazifasiga ega bo'lib, o'g'li borlar oq o'tovga, qizi borlar esa qizil o'tovga joylashtirilgan. Befarzandlar qora o'tovga olib kirilib, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatilmagan. Shu udumning "Qo'rqut Ota kitobi" eposida ham tasvirlanganligini kuzatishimiz mumkin.

To'y tasviri mumtoz asarlarda ham o'z aksini topgan. Jumladan, buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning mashhur "Layli va Majnun" dostonidagi voqealar rivojida ikkita to'y tasviri keltirilgan. Birinchi to'y tasviri 30 – bobdan joy olgan bo'lib, Majnun bilan Navfal qizining nikohiga bag'ishlanadi. Ikkinchi to'y tasviri Layli va Ibni Salom to'yi tasviridir. Ikkala to'y ham to'liq tasvir orqali ifoda etilgan.

Milliy to'y tasviri nafaqat mumtoz adabiyotdagi asarlarda balki XX asrda yaratilgan asarlarda ham uchraydi. Buni Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari misolida kuzatish mumkin. Abdulla Qodiriyning bu asarida to'liq hamda qisman to'y tasvirlari uchraydi. Birinchi to'y – Otabek va Kumushning Marg'ilonda bo'lib o'tgan to'yi tasviri to'liq ifodalangan bo'lsa, ikkinchi to'y - Otabek bilan Zaynabning Toshkentda bo'lib o'tgan to'yi qisman tasvirlash orqali beriladi.

O'zbek adabiyotida o'ziga xos uslubga ega bo'lgan adib Tog'ay Murod ham o'z asarlarida to'y tasvirini ifoda etgan. Tog'ay Murod to'y tasvirida milliy an'analarni ko'rsatib berishga keng o'rin bergan. Jumladan, Surxandaryocha to'y tasvirida bir qator milliy o'yinlar to'liq bayon etilgan.

Xullas, badiiy asarlarda to'y-marosimini tasvirlash orqali millatimizning o'ziga xos fazilatlari, qadimiy urf - odatlari yoritib berilgan. Bu hol asarlarning ta'sir kuchini oshiradi, tarixiy vaziyat, ijtimoiy muhit va o'sha davr odamlarini konkret tasavvur qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

I. Ijtimoiy – siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.
2. Karimov I. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.

II. Ilmiy adabiyotlar:

1. Ахмедов Т. Алишер Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” достони. – Тошкент: Фан, 1970.
2. Badalov Ch. Tog'ay Murodning milliy qahramonlar timsolini yaratishdagi usuli // Til va adabiyot ta'limi, 2010. 9 – son, 44 – 51 – betlar.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2002.
4. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётушунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993.
5. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
6. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқи оғзаки поетик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
7. Каримов Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2006.
8. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти манзаралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.
9. Каримов Ғ. Халқ, тарих, адабиёт. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.

10. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007.
11. Normatov U. Tog'ay Murod // Til va adabiyot ta'limi, 2007. 2 – son, 60 – 68 – betlar.
12. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007.
13. Sariboyeva M. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini o'rganish // Til va adabiyot ta'limi, 2010. 4 – son, 16 – 22 – betlar.
14. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
15. Умуров Х. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002.
16. Худойбердиев Е. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
17. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004.
18. Шукуров Н. ва б. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 4 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2008.
20. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Ахмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004.
21. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.
22. Hamroyeva O. “Alpomish” dostoni Fitrat talqinida // Til va adabiyot ta'limi, 2010. 12 – son, 35 – 40 – betlar.
23. Hoji Muin. To'y va aza marosimi haqida // Mehnatkash tovushi, 1919. 22 – mart.

III. Badiiy adabiyotlar:

1. Alpomish. – Toshkent: Sharq, 2010.
2. Жўржий Зайдон. Фарғона келини. – Тошкент: Шарқ, 2005.

3. Navoiy A. Layli va Majnun. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2006.
4. Тоғай Мурод. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2008.
5. Тохир Малик. Шайтанат. – Тошкент: Шарқ, 2006.
6. О’zbek xalq ertaklari. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot– matbaa ijodiy uyi, 2006.
7. О’zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.
8. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2007.
9. Қўрқут ота китоби // Ёшлик, 1988. 5 – 6 – 7 сонлар.
10. Hoshimov O’. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent: Sharq, 2009.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. Xalq og'zaki ijodi hamda mumtoz adabiyotda to'y marosimi talqini	7
II BOB. XX asr adabiyotida to'y marosimi tasviri va uning ahamiyati	35
Xulosa.....	54
Adabiyotlar ro'yxati.....	59

Bajaruvchi :

Xolmaxmedova N.

Ilmiy rahbar :

f.f.n. Davronova M.